

# Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huziridagi Bosh ilmiy-metodik markaz



Ananaviy  
darslar



Video  
darslar

## ILMIY VA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH

# 2021

*Tarmoq va mintaqaviy markaz  
tinglovchilari foydalanishi uchun*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH  
BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**ILMIY VA INNOVATSION FAOLIYATNI  
RIVOJLANTIRISH**

**MODULI BO'YICHA**

**O' QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Toshkent -2020**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:** i.f.d., prof. R.I.Nurimbetov  
p.f.n., dotsent M.U.Dexkanova  
p.f.f.d., PhD J.Kusharbayev

**Taqrizchi:** i.f.d., prof. F.Nazarova

**O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining  
qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2020 yil “30” dekbardagi 5/4-sonli bayonnomasi)**

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>6</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>15</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>21</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>58</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>92</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>101</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabrda tasdiqlangan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi, 2020 yil 24 iyulda tasdiqlangan “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”<sup>1</sup>.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo‘lida tez va sifatli ilgarilashini ta’minlaydigan zamonaviy innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi<sup>1</sup>.

Ushbu yuqorida ta’kidlab o‘tilgan fikrlar hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarning bu boradagi ilg‘or tajribasini chuqur va tanqidiy o‘rgangan holda mamlakatimiz iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqishdagi muhim vazifalardan biri sanaladi.

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.- Тошкент. “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.-Б.23.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони 2018 й. 21.09.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

**“Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” modulining maqsadi:** oliy ta’lim muassasalarini professor-o‘qituvchilarining oliy ta’lim muassasalarida «Universitet 3.0» konsepsiysi asosida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish haqidagi bilimlarini rivojlantirish, Scopus, ScienceDirect, Web of Science xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalaridagi jurnallarda ilmiy va innovatsion faolligini oshirish borasida bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini oshirish.

**“Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” modulining vazifalari:**

- O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi, “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasida ilmfanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi asosida ilmiy-pedagogik va innovatsion faoliyatini olib borish;
- oliy ta’lim muassasalarida «Universitet 3.0» konsepsiysi asosida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish;
- o‘z-o‘zining tadqiqotchi sifatida rivojlantirish;
- Scopus, ScienceDirect, Web of Science xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalaridagi jurnallarda ilmiy maqolalarni chop etish va o‘z ilmiy faolligini takomillashtirish haqida nazariy va amaliy bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

**Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

**Tinglovchi:**

- O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi, “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasida ilmfanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi mazmuni va mohiyatini;
- O‘zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning maqsadi, vazifasi va uning metodologik asoslarini;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va innovatsion faoliyatning huquqiy asoslarini;
- ilmiy ishlanmalar va tijoratlashtirish ob’ektlari, innovatsion ishlanmalar, davlat ilmiy-texnik dasturlari, loyihalari, startap-loyihalarni rasmiylashtirish usullarini;
- oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiysi mazmunini;

- zamonaviy universitetlarda texnologiyalar va loyiha boshqaruvi, fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi komponentlarini;
- xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalari va ularning tavsiflari, ilmiy maqolalarga qo'yilgan talablar, maqolani tayyorlash, chop ettirish tartiblarini;
- pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini Scopus, ScienceDirect, Web of Sience tizimlari asosida takomillashtirish usullarini **bilishi** kerak.

**Tinglovchi:**

- O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi asosida innovatsion ishlanmalar, davlat ilmiy-texnik dasturlari, loyihalari, startap-loyihalarni rasmiylashtirish;
- oliv ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;
- fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish;
- o'z-o'zining tadqiqotchi sifatida nashr faolligini rivojlantirish;
- xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridagi jurnallarda ilmiy maqolalarni chop etish;
- xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridagi jurnallarda ilmiy maqolalarni chop etish
- pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini Scopus, ScienceDirect, Web of Sience tizimlari asosida takomillashtirish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi asosida o'z-o'zining ilmiy-pedagogik va innovatsion faoliyatini olib borish;
- oliv ta'lim muassasalarida «Universitet 3.0» konsepsiysi asosida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish;
- o'z-o'zining tadqiqotchi sifatida rivojlantirish;
- Scopus, ScienceDirect, Web of Sience xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridagi jurnallarda ilmiy maqolalarni chop etish va o'z ilmiy faolligini takomillashtirish **kompetensiyalarga** ega bo'lishi lozim.

**Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

"Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish" moduli ma'ruza va amaliy

mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimotli va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida va aqliy hujum, videoousul, SWOT, “KWHL”, “W1H”, SCAMPER, loyiha, kichik guruqlar bilan ishslash va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Ta’lim jarayoniga raqamlı texnologiyalarni joriy etish” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda oliy ta’lim muassasaları professor-o‘qituvchilarining kasbiy va pedagogik mahorat darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagи o‘rni**

Mazkur modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ilmiy tadqiqotlar sifatini yaxshilash, yangi texnologiyalarni yaratish, zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishga hamda ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti**

<b>№</b>	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b>		
		<b>Jami</b>	<b>Nazariy</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot</b>
1.	O‘zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	2	2	
2.	Oliy ta’lim muassasalarida «Universitet 3.0» konsepsiyasini joriy etish muammolari va istiqbollari	4	2	2
3.	Pedagogning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish.	2		2
	<b>Jami:</b>	<b>8</b>	<b>4</b>	<b>4</b>

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-MAVZU: O‘zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari. (2 soat)**

**Reja:**

1. O‘zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning maqsadi va vazifalari.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” va “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmuni va mohiyati.
3. Ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari.
4. Ilmiy ishlanmalar va tijoratlashtirish ob’ektlari. Innovatsion ishlanmalar, davlat ilmiy-texnik dasturlari, loyihalari, startap-loyihalarni rasmiylashtirish.

### **2-MAVZU: Oliy ta’lim muassasalarida «Universitet 3.0» konsepsiyasini joriy etish muammolari va istiqbollari. (2 soat)**

**Reja:**

1. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiysi va uni bosqichma-bosqich joriy etish.
2. Zamonaviy universitetlarda texnologiyalar va loyiha boshqaruvi.
3. Fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1- MAVZU: Oliy ta’lim muassasalarida «Universitet 3.0» konsepsiyasini joriy etish muammolari va istiqbollari. (2 soat)**

1. Oliy ta’lim muassasalarida infratuzilma va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish.
2. Ta’lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish.

## **2- MAVZU: Pedagogning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish. (2 soat)**

1. Professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatida nashr faolligini rivojlantirish: xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalari va ularning tavsiflari. Ilmiy maqolalarga qo‘yilgan talablar, maqolani tayyorlash, chop ettirish tartiblari.
2. Pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini Scopus, ScienceDirect, Web of Sience tizimlari asosida takomillashtirish.

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- keys (muammoli vaziyat yoki ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- interfaol metodlar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

#### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

#### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabrda qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda qabul qilingan “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-630-sonli Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim

to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevral “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-sonli Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

18. Balmasova T.A. «Tretya missiya universiteta» –novyu vektor razvitiya? // Vysshie obrazovanie v Rossii. – 2016. – № 8-9. – S. 48-55.

19. Informatsionnye texnologii v pedagogicheskem obrazovanii / Kiselev G.M., Bochkova R.V. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: Dashkov I.K. 2018. – 304 s.

20. Kreativnaya pedagogika. Metodologiya, teoriya, praktika. / pod. red. Popova V.V., Kruglova Yu.G.-3-ye izd.–M.: “BINOM. Laboratoriya znanii”. 2012. – 319 s.

21. Myagkov G.P., Buxaraev V.M. Transformatsiya klassicheskogo universiteta v usloviyakh «tekushchey sovremennosti» // Klassicheskiy universitet: istoriya i sovremennost: materialy Vseross. s mejdunarodnym uchastiem nauchno-prakticheskoy konferensii, posvyashchennoy 85-letiyu Udmurtskogo gos. un-ta; Ijevsk, 3-4 fevralya 2016 g. /otv. red. i sost. V.V. Puzanov, D.V. Repnikov. – Ijevsk: Izdat. sentr «Udmurtskiy universitet», 2016. – S. 56-61.

22. Nurimbetov R.I.Universitet 3.0 modeli va innovatsion faoliyatni tashkil etish.O‘quv-uslubiy majmua. – T.: 2019. – 119 b.

23. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. [https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3.\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf)

24. Otajaonov Sh. Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi: Tanlov mavzulari va ilmiy loyihalar qanda shakllantiriladi? . “Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi” DUK, – T.: 2020. – 73 b.

25. Tazarbekov K.A. K razrabotke «Dorojnoy kartы transformatsii universiteta «Turan» v innovatsionno-predprinimatelskiy universitet». Tezisy. - almatы: Universitet «Turan», 2016. -36 s.

26. Paul Kim. Massive Open Online Courses: The MOOC Revolution. Routledge; 1 edition 2014. - 176 pp.

27. Technology and Innovation report 2018. Harnessing Frontier Technologies for Sustainable Development United Nations publication UNCTAD/TIR/2018. 113 p ([https://unctad.org/system/files/official-document/tir2018\\_en.pdf](https://unctad.org/system/files/official-document/tir2018_en.pdf))

#### **IV. Internet saytlar**

28. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

29. <http://www.mitc.uz> - O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi.

30. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

31. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.

32. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyoNET

33. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI**

## O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM

### “KWHL” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqini vazifasini belgilaydi.

*Know – nimalarni bilaman?*

*Want – nimani bilishni xohlayman?*

*How - qanday bilib olsam bo'ladi?*

*Learn - nimani o'rghanib oldim?.*

“KWHL” metodi	
<p><b>1. Nimalarni bilaman:</b> -</p>	<p><b>2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</b> -</p>
<p><b>3. Qanday qilib bilib va topib olaman:</b> -</p>	<p><b>4. Nimalarni bilib oldim:</b></p>

### “W1H” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlataladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



## SWOT -таклили

<b>Strengths</b>	<b>Weakness</b>
<b>Opportunities</b>	<b>Threats</b>

- **S-кучли томони**
- **W- кучсиз томони**
- **O- имконият**
- **T- тўсиқлар**

### Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lif oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lif oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



•

## Muammoli vaziyat

### “SCAMPER” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod muammolarni bartaraf etish bo‘yicha yangi



## **Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish**

T  
a'  
li  
m  
ti  
zi  
m  
in  
i  
ta  
k  
o  
m  
ill  
a  
s  
h  
ti  
ri  
s  
h  
v  
a  
in  
s  
o  
n  
k  
a  
pi  
ta  
li  
ni  
ri  
v  
oj  
la

**g‘oyani ishlab chiqish)**

		n t r i s h
	Nima bilan almashtirish mumkin?	
	Nima bilan birlashtirish mumkin?	
	Nimaga moslashtirish kerak?	
	Qanday yaxshilash mumkin?	
	Nimalarni o'zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi, rang va boshqalar)	
	Yana qanday holda qo'llash mumkin	
	Nimani qayta tiklash mumkin?	

### **"Loyiha"** **"Loyiha"** metodi

yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishni ko'zda tutuvchi metoddir.



### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

## 1-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ILMIY VA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

### Reja:

1.1. O'zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlanirishning maqsadi va vazifalari

1.2. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlanirish konsepsiyasining mazmuni va mohiyati.

1.3. Ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari.

1.4. Innovatsion ishlanmalar, davlat ilmiy-texnik dasturlari, loyihalari, startap-loyihalarni rasmiylashtirish.

**Tayanch so'zlar:** ilmiy faoliyat, innovatsion faoliyat, innovatsion ishlanmalar, startap-loyihalar, innovatsion loyihalar, amaliy tadqiqot, texnologiyalar transferi, tajriba-konstrukturlik loyihalari,

### 1.1. O'zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlanirishning maqsadi va vazifalari.

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"<sup>1</sup>. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.- Тошкент. "Ўзбекистон" НМИУ, 2018.-Б.23.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5544-сонли Фармони 2018 й. 21.09.

O‘zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy maqsadi - mamlakatimizda ilmiy salohiyatni oshirish, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, jahon ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma’lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini yaratish shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini chuqr va tanqidiy o‘rgangan holda mamlakatimiz iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqishdan iborat.

Bu borada hukumatimiz tomonidan ko‘plab, farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabr “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida» gi O‘RQ-630-sonli Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining

2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-6097-sonli Farmonlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari rektorlari kengashi negizida nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta’lim kengashini (keyingi o‘rinlarda — Kengash) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi.

Ushbu farmonga asosan Kengashning asosiy vazifalari biri etib oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish belgilandi.

Shuningdek, ushbu farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqildi.

Ushbu konsepsiyaning “Oliy ta’lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar” bobida yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta’lim tizimi oldida bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va

kamchiliklar saqlanib qolyotganligi, jumladan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat sohasida:

oliy ta'lim muassasalari ilmiy faoliyati hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanadirish istiqbollaridan kelib chiqib tashkil etilmagan, tahlillar asosida innovatsion rivojlanishni prognozlashtirish faoliyati yo'lga qo'yilmaganligi;

innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarini tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalg etish natijadorligi yetarli emas, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi ta'minlanmaganligi;

oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati atigi 36,4 foizni tashkil etishi;

ilmiy darajaga ega xodimlarning o'rtacha yoshi 49 bo'lib (fan doktorlari — 56 yosh, falsafa doktorlari va fan nomzodlari — 43 yosh), yuqoriligicha qolmoqdaligi, fan doktorlari orasida nafaqa yoshidagilarning ulushi 45 foizni tashkil etishi;

ilmiy-tadqiqot ishlari ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud muammolar yechimiga qaratilmaganligi;

so'nggi yillarda nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarga iqtiboslar soni kamligi;

ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va yosh olimlar faoliyatini rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmlari yaratilmaganligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Konsepsiya da oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirilishi belgilandi:

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalari tarkibida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarni tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qilish va prognozlashtirish bo'yicha faoliyat olib borishlarini ta'minlash;

professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalarini tashkil etiladigan texnoparklarda ilmiy va innovatsion faoliyat olib borishlariga erishish;

budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga startap loyihalari asosida tijoratlashtirish salohiyati yuqori bo'lgan yangi mahsulotlar va texnika-texnologiyalarni yaratish orqali oliy ta'lim muassasalari huzurida ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish

bilan shug‘ullanuvchi «spin-off» va «spin-out» korxonalarini tashkil etish, akademik tadbirdorlikni rivojlantirish;

xalqaro SsiVal axborot-tahlil tizimi yordamida jahondagi ilmiy-tadqiqot natijalarini tahlil qilib borish asosida ilm-fanning ilg‘or yutuqlari bilan uyg‘un rivojlanishini ta’minlash;

nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish;

oliy ta’lim muassasalari ilmiy jurnallarining Scopus, ScienceDirect va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalariga bosqichma-bosqich kiritilishini ta’minlash;

fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag‘batlantirish;

xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasiga kiruvchi nufuzli ilmiy nashrlarda maqolalar e’lon qilish orqali faoliyatining ilmiy natijalari xalqaro darajada tan olinishini belgilovchi ko‘rsatkich «Xirsh» indeksi (h-indeks) yuqori bo‘lgan olimlar, professor-o‘qituvchilar hamda yosh ilmiy izlanuvchilarni budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirib borish tizimini joriy etish;

oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar sifatini ko‘tarish, ularni statistik, texnik va boshqa ma’lumotlar bilan ta’minlash mexanizmlarini yaratish, bu borada tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

professor-o‘qituvchilar tarkibining ilmiy daraja va unvonlarga ega xodimlar yoshi nuqtai nazaridan optimal nisbatiga erishish;

ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlarini ta’lim jarayoni va ilmiy rahbarlikka jalb qilish, magistratura va doktorantura bosqichlaridagi ilmiy ishlarni mazkur ilmiy-tadqiqot muassasalarida olib borilishi hamda himoya qilinishini ta’minlash;

jahon ilmiy tadqiqotlar bozori tendensiyalaridan kelib chiqib, har bir oliy ta’lim muassasasida (fakultet, kafedra va laboratoriylar kesimida) ilmiy tadqiqotlarni tor va fanlar tutashligidagi sohalarga ixtisoslashtirish, ularni ishlab chiqarish va hududiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish, qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan istiqbolli ilmiy yo‘nalishlarni belgilash, ushbu yo‘nalishlarda yuqori malakali professor-o‘qituvchilar va talabalar salmog‘ini oshirish;

Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi O‘zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi O‘quv-amaliy to‘qimachilik texnoparki hamda Urganch davlat universiteti huzuridagi «Xorazm» innovatsion texnoparkining faoliyati samaradorligini oshirish;

xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish orqali innovatsion faoliyat infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida «Hujayra» va

molekular biotexnologiya», «Tibbiy genetika», «Ekofiziologiya», «Materialshunoslik», «Energiya tejovchi texnologiyalar, nazorat-o‘lchov va avtomatlashtirilgan tizimlar», «Qurilish materiallari» hamda «Oziq-ovqat mahsulotlari va texnologiyasi» yo‘nalishlari bo‘yicha 7 ta oliy ta’lim muassasalararo ilmiy-tadqiqot laboratoriyasini tashkil etish;

O‘zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazida zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilishini ta’minalash va rivojlantirib borish;

ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tegishli institutlari hamda nufuzli xorijiy oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yetakchi mahalliy oliy ta’lim muassasalarining faol hamkorligini yo‘lga qo‘yish, bunda mentorlik modelidan keng foydalanish;

professor-o‘qituvchilar tomonidan yuritilishi lozim bo‘lgan turli jurnal va o‘quv-uslubiy hujjatlar sonini qat’iy qisqartirish orqali ularning ilmiy faoliyatini jadallashtirish;

ilmiy-tadqiqot ishlarini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi, shu jumladan hududiy miqyosdagi mavjud muammolarning innovatsion yechimiga qaratish, fanlar tutashligidagi muammolarni keng tadqiq etish;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, akademik litseylarga jalb qilish, oliy ta’lim muassasalariga saralab olish, chuqurlashtirilgan ta’lim dasturlari asosida o‘qitish, ularning fan olimpiadalaridagi ishtirokini kengaytirish, ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish, «ustoz-shogird» tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislarga biriktirish, bu boradagi ma’lumotlar elektron bazasini yaratish;

oliy ta’lim muassasalarining Yoshlar akademiyasi hamda Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashi bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirib borish;

oliy ta’lim muassasalari ilmiy salohiyatini oshirish, maqsadli doktorantura orqali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ilmiy daraja dasturlarini ishlab chiqish;

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutlari faoliyatini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, ilmiy kengashlar va himoyalar tizimini xalqaro tajribaga muvofiqlashtirish;

ilmiy darajalar va unvonlar berish vakolatini bosqichma-bosqich oliy ta’lim muassasalariga berish;

doktoranturaga qabul qilish shartlarini belgilashda oliy ta’lim muassasalariga erkinlik berish, talabgorlarni saralab olishda ularning ilmiy yutuqlariga alohida e’tibor qaratish;

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar majlislarini hududlardagi oliy ta’lim muassasalaridan turib onlayn kuzatish platformasini yaratish.

Shuningdek, konsepsiya da oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko‘rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta’minlash, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi «xab»ga aylantirish, oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, ta’limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

## **1.2. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi, “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmuni va mohiyati.**

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabrda “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonunning maqsadi ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir. Qonun 6 bob, 46 moddadan iborat bo‘lib, 1-bobi. Umumiyoq qoidalar, 2-bobi. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini tartibga solish, 3-bobi. Ilmiy faoliyat va uning sub’ektlari, 4-bobi. Ilmiy faoliyatni tashkil etish va baholash, 5-bobi. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirish hamda 6-bobi. Yakunlovchi qoidalarga qaratilgan.

“Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunning 3 moddasida ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy prinsiplari: ilmiy ijod va axborot erkinligi; samaradorlik va ijodiy raqobat; manfaatdorlik va rag‘batlantirish; ilmiy ekspertizaning xolisligi; inson hayoti va salomatligi, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik kabilalar belgilangan.

4-moddasida esa ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy yo‘nalishlari etib quyidagi: ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi hamda samaradorligiga erishish; ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va resurslarni maqsadli yo‘naltirish; davlat ilmiy dasturlarini ishlab chiqish, asoslantirilgan tashabbus va loyihalarni qo‘llab-quvvatlash; ilm-fanga intilish va uning jozibadorlik muhitini shakllantirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, yosh iste’dod egalarini tayyorlab borish; intellektual mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarni muhofaza qilish; ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirishni oqilona oshirib borish; ilm-fan, ta’lim va ishlab

chiqarishning uzviy bog‘liqligini ta’minlash hamda undan manfaatdorlikni oshirish; ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining axborot makoni bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlash; ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Qonunning 11-moddasida yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalg etishga qaratilgan bo‘lib, unda tegishli davlat dasturlarini ishlab chiqish; ta’lim tashkilotida iste’dodlarni aniqlash, tanlash, tarbiyalash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar olib borish; tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan mакtablar, mакtab-internatlar, maxsus sinflar, markazlar va o‘quv kurslari tashkil etish; ta’lim jarayonida egallangan bilimlarni kundalik turmush va kasbiy faoliyatda samarali qo‘llay olishga qaratish; ta’lim oluvchilar o‘rtasida turli tanlovlardan uyuştirib borish va rag‘batlantirish; chet el yetakchi ilmiy tashkilotlari va ta’lim muassasalariga magistratura va doktorantura dasturlarini o‘tash, malaka oshirish, tajriba orttirishga yuborish orqali va boshqa shakllarda amalga oshirilishi hamda yosh olimlarning ilmiy tashkilotlar va ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlardagi ilmiy uyushmalari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarida yosh olimlar va talabalarning ilmiy faoliyat yuritishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi ta’kidlangan.

Qonunning 21- va 22- moddalari bevosita ilm-fan va ta’lim hamda ishlab chiqarishning uzviy bog‘liqligi qaratilgan bo‘lib, bunda:

- ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish;
- ta’lim oluvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish;
- pedagog kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirib borish;
- «ustoz — shogird» mакtab va an’analarini mustahkamlash, ilmiy izlanuvchilarning iqtidorli kelajak avlodini shakllantirish;
- ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlab borish orqali ta’minlash;
- innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni yaratish hamda qo‘llash uchun qulay muhitni shakllantirish;
- innovatsiyalarni joriy etishdan manfaatdorlikning tashkiliy-huquqiy tizimini takomillashtirib borish;
- tadbirkorlik sub’ektlari huzurida tegishli yo‘nalishlarda ilmiy tashkilotlarning faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ilmiy faoliyat yuritayotgan xorijiy hamkorlar bilan izchil va samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- innovatsion infratuzilmani (texnologiya parklari, texnologiyalarni tarqatish (texnologiyalar transferi) markazlari, innovatsion klasterlar, venchur jamg‘armalari, biznes-inkubatorlar va boshqalarni) rivojlantirish;
- xususiy ilmiy tashkilotlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash nazarda tutilgan.

Shuningdek, Qonunda ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash masalalariga urg‘u berilib, unda ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik asosida amalga oshirilishi, tayanch doktorantura va doktorantura doirasidagi ilmiy faoliyat ishlab chiqarishdan ajralgan holda olib borilishi hamda mustaqil izlanuvchilik doirasidagi ilmiy faoliyat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borilishi ta’kidlanadi.

Mazkur qonunning 41-moddasida O‘zbekiston Respublikasining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida xalqaro hamkorligi milliy ilmiy maktablarning jahon miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, dunyo ilm-fani va texnologiyalari ilg‘or yutuqlaridan milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini yuksaltirishda foydalanish, chet el investitsiyalari, chet ellik yetuk ilmiy va texnologiya markazlari, olimlar, mutaxassislarni mamlakatga jalg‘ etish mmasalalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi O‘RQ-630-sonli Qonuni qabul qilingan. Qonunning maqsadi innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. U 6 bob, 39 moddani o‘z ichiga olgan bo‘lib, uning 1-bobi Umumiyligida qoidalar, 2-bobi Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish, 3-bobi Innovatsion faoliyatni amalga oshirish, 4-bobi Innovatsion infratuzilma, 5-bobi Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish va 6-bobi Yakunlovchi qoidalarga qaratilgan. Qonunda innovatsiya, innovatsion infratuzilma, innovatsion loyiha, innovatsion faoliyat, texnologiyalar transferi va yangi ishlanmalar tushunchalariga quyidagicha ta’riflar keltiriladi:

Innovatsiya — fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma.

Innovatsion infratuzilma — innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta’minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mulkchilikning istalgan shaklidagi ular birlashmalarining majmuidir.

Innovatsion loyiha — yangi ishlanmalar yaratish uchun bajarish muddatlarini, ijrochilarini, moliyalashtirish manbalarini va tegishli infratuzilmani shakllantirishni nazarda tutuvchi tadbirlar majmuidir.

Innovatsion faoliyat — yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha faoliyat turi.

Texnologiyalar transferi — yangi ishlanmani u olinadigan (ishlab chiqariladigan) sohadan amalda qo‘llash sohasiga o‘tkazishga qaratilgan tadbirlar majmuidir.

Innovatsion ishlanma — mavjud o‘xhash intellektual faoliyat natijalariga nisbatan yangi belgilarga ega bo‘lgan, amalda qo‘llash mumkin bo‘lgan va amaliyotda undan foydalanganda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlay oladigan

intellektual faoliyat natijasidir.

Ushbu Qonunda texnologiyalar transferining ustuvor yo‘nalishlari va usullari, texnologiyalar transferi mexanizmlari, texnologiyalar transferini amalga oshirish cheklovleri, texnologiyalar transferi uchun shartnomaga tuzish va ro‘yxatdan o‘tkazish qoidalari belgilangan.

Shuningdek intellektual mulk ob’ektiga doir huquq egasining tashkilot ustav fondidagi ulushi miqdori ta’sischilarning o‘zaro kelishuvi bo‘yicha belgilanishi va davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yoki davlat sirlari jumlasiga kiruvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish davlat sirlarini saqlash to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrda “Ilm-fanni 2030

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni

q

a

b

u

l

q

i

l

i

n

Konsepsiya ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rtalari va uzoq muddatli istiqboldagi rivojlanish bosqichlarini belgilab beradi hamda sohaga oid maqsadli dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

Konsepsiya yaqin kelajakda ilm-fan sohasida hal etilishi zarur bo‘lgan o‘n to‘qqizta asosiy muammolar ko‘rsatib o‘tildi.

Ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari qilib ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish, ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish, ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish belgilandi.

Konsepsiya ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida quyidagi ishlarni amalga oshirilishi belgilandi:

- jahon tajribasida loyihiboy boshqaruv o‘zining samaradorligini ko‘rsatayotganini inobatga olib, ilm-fanni boshqarishda dasturiy maqsadli hisoblanadi.

yondashuvni qo'llash, yangi boshqaruv vositalarini joriy etish va ulardan foydalanish yo'lga qo'yish;

- respublikada ilmiy sohaning holati va kelgusida rivojlanishini aniqlash uchun maqsadli ko'rsatkichlarning strategik jihatdan maqbul bazasini, ilmiy faoliyat sohasidagi chuqur, batafsil ekspert-tahlil va prognoz ishlarini tayyorlash hamda amalga oshirish bo'yicha milliy dastur ishlab chiqish;

- ilmiy tashkilotlarning holati va ish faoliyatini baholash, ilm-fanni taraqqiy ettirish bo'yicha davlat siyosatini muvofiqlashtirish va strategik rivojlanishning vazifa hamda yo'nalishlarini belgilash, ilmiy-tadqiqot sohasi rivojlanishining salbiy va ijobjiy tomonlarini aniqlash uchun tizimli ravishda (har uch yilda bir marotaba) mahalliy ilmiy salohiyat, davlat ilmiy-texnik ekspertizasi va ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari xalqaro audit tashkilotlari tomonidan mustaqil fan auditidan o'tkazish;

- vakolatli davlat organi tomonidan yillik monitoring tizimi yo'lga qo'yish, yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda mustaqil fan auditni natijalarini bilan uyg'unlashtirilgan ilmiy tashkilotlarning milliy reyting tizimi shakllantirish;

- ilmiy va texnikaviy rivojlanishning afzallikkani va nuqsonlari to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradigan, har bir sohaning innovatsion rivojlanishidagi istiqbolli ilmiy va texnologik yo'nalishlarini aniqlash, ilmiy, texnikaviy va sanoat-texnologik faoliyat natijalarini iqtisodiy baholash maqsadida forsayt guruhlari tashkil etish va forsayt tadqiqotlari o'tkazib borish;

- ustuvor qadam sifatida ilmiy tashkilot rahbari lavozimiga ilm-fan tizimini boshqarish ko'nikmasiga va iqtisodiy bilimga ega bo'lgan yosh mutaxassisni tayinlash amaliyoti kiritish;

- ilm-fanda o'zini o'zi boshqarish tizimini rivojlantirish orqali davlat va ilmiy tashkilotlar o'rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish hamda uning doirasida loyihalarni amalga oshirish, ilmiy yo'nalishlarni shakllantirish va ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash hamda ilmiy maktablar, fan namoyandalari va yetakchi olimlarning sohadagi mas'uliyatini oshirish maqsadida har bir fan yo'nalishlari bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida fan jamiyatlari tashkil qilish.

Ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash borasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- ilm-fan sohasiga yo'naltiriladigan mablag'lar bosqichma-bosqich 2022 yilgacha yalpi ichki mahsulotning 0,8 foizi miqdorigacha oshiriladi. Bunda yo'naltirilgan mablag'lar mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik muhim yo'nalishlariga muvofiq ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish va chuqur ilm talab qiluvchi mahsulotlar yaratish bo'yicha ilm-fanga oid davlat, hududiy va xalqaro dasturlarni hamda startap loyihalarni davlat buyurtmasi tanlovlari ko'ra moliyalashtirishga, yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish, zamonaviy fan yo'nalishlari bo'yicha

infratuzilmalarni tashkil qilish, ilmiy tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini yangilab borish, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim (doktorantura) institutini moliyalashtirish kabi rejalashtirilgan chora-tadbirlarga yo‘naltiriladi;

- ilmiy loyihalarni xususiy sektor va tarmoq tashkilotlari bilan teng sheriklikda moliyalashtirish amaliyoti kengaytiriladi. Bunda davlat buyurtmasi doirasida korxona muammolarining yechimiga qaratilgan tematik loyihalar tanlovlari tashkil qilinib, tanlov natijalariga ko‘ra teng sheriklikda moliyalashtirish yo‘lga qo‘yiladi. Natijada xususiy tarmoq korxonalarining ilmiy faoliyatni moliyalashtirishdagi ulushi salmoqli darajada o‘sishiga erishiladi;

- ilmiy-innovatsion loyihalarni qo‘sishimcha moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlari, xususan Jahon bankining ilm-fanni tijoratlashtirishga ajratiladigan imtiyozli qarz mablag‘lari jalb qilinadi. Jalb qilingan mablag‘lar grant loyihalari ko‘rinishida tadqiqotlarni tanlov asosida moliyalashtirishga, innovatsion korxonalar tashkil qilish orqali yangi ishlanmalarni tijoratlashtirishga, ilmiy va innovatsion faoliyat ekotizimini rivojlantirish va mamlakatda texnologiyalar transferi markazlarini tashkil qilishga yo‘naltiriladi;

- ilm-fan va ilmiy faoliyatga xorijiy davlatlar donor tashkilotlarining grantlari, texnik ko‘mak va boshqa tashqi beg‘araz ko‘mak mablag‘larini jalb etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshiriladi. Shu maqsadda qator xalqaro ilmiy fondlar O‘zbekistonda akkreditatsiyadan o‘tkaziladi;

- innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni moliyalashtirishda «amalga oshmaslik xavfini» kamaytirish uchun Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi jamg‘arma mablag‘lari ishtirokida xorijiy yetakchi investitsion kompaniyalar bilan venchur fondlari tashkil qilinadi;

- ilm-fanning istiqbolli va yangi yo‘nalishlarida (shu jumladan, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, robototexnika, farmasevtika, biotexnologiya, nanotexnologiyalar, energetika, muhandislik, elektronika, mexanika, mashinasozlik, genomika, astronomiya, dasturlash, sanoat dizayni, kriminalistikada) ilmiy-tadqiqot ishlari jadallashtiriladi.

Yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish borasida quyidagi ishlar amalga oshirilishi belgiladi:

- yetakchi ilmiy tashkilotlar va universitetlarda ilmiy izlanishlarning ilg‘or darajasini ta’minlashga qodir malakali kadrlar bilan ta’minlangan yangi ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi shakllantirib boriladi;

- fan doktorlari (DSc) va falsafa doktorlari (PhD)ni tayyorlash doirasida ustuvor ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy kadrlarni maqsadli tayyorlashga o‘tiladi;

- dotsent va professor unvonini olish tartibiga doktoranturadan keyingi orttirilgan tajriba mavjudligiga oid talablar kiritiladi;

- davlat ilmiy tashkilotlarida yangi kadrlar siyosati joriy qilinib, asosiy e'tibor kadrlar bilan ishlashning strategik boshqaruvini joriy etishga qaratiladi;
  - mutaxassislarni qayta tayyorlash va doimiy ravishda malakasini oshirib borish maqsadida ingliz tilini o'rganayotgan olimlar uchun turli o'quv kurslarini tashkil qilish, mahalliy va dunyoning yetakchi universitetlari o'rtasida o'qituvchilar va talabalar bo'yicha dasturlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi;
  - Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va «El-yurt umidi» jamg'armasi mablag'lari hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtidorli yosh olimlarning yetakchi xorijiy ilmiy markazlarda qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarini tashkillashtirish, o'qish va malaka oshirishiga ko'maklashiladi, ularning xalqaro ilmiy-texnik konferensiyalarda va ilmiy loyihalarda ishtirotki etishlari, ilmiy ishlarining nashr etilishi ta'minlanadi;
  - tadqiqotchilar va olimlar uchun professional treninglar tashkil etiladi;
  - ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va jahon andozalariga moslashtirish choralar ko'rildi. Bunda yetakchi ilmiy tashkilotlar va universitetlarga mustaqil ilmiy darajalar berish vakolatlari kengaytirib boriladi, dissertatsiya himoyasi va attestatsiya o'tkazish amaliyoti tubdan isloh qilinadi;
  - oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim (doktorantura) institutiga kvotalar ajratish va uni monitoring qilish tizimi to'laligicha vakolatli davlat organiga yuklanadi va raqamlashtiriladi;
  - davlat buyurtmasi asosida moliyalashtirilayotgan grant loyihalari doirasida qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish, xalqaro ilmiy anjumanlarda ishtirot etish, yangi mexanizm sifatida grant loyihalari doirasida fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) va fan doktorlari (DSc) tayyorlashga buyurtma berish hamda uni moliyalashtirishga ruxsat beriladi;
  - oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat va magistraturada tahsil olayotgan talabalarga ilmiy faoliyat olib borish uchun zarur shart-sharoitlar va rag'batlantirish mexanizmlari yaratiladi. Natijada o'qishni bitirgan va ilmiy faoliyatini davom ettirishni bildirgan magistrlarning soni ko'payadi;
  - doktorantlar bilan ishlash, ular tomonidan olib borilayotgan ishlarni nazorat (monitoring) qilish, himoyaga o'z vaqtida chiqishini ta'minlash mexanizmlari yanada takomillashtiriladi.
- Ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish borasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:
- ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy laboratoriylari zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanadi hamda butlovchi qismlar bilan ta'minlanadi;
  - ilmiy faoliyat infratuzilmalari (ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari) doirasida milliy ilmiy laboratoriylar tarmog'i yaratiladi;

- ilm-fanni rivojlantirish uchun mahalliy va xorijiy olimlarga markazlarning asbob-uskunalari, tajriba-ishlab chiqarish bazalari va boshqa ilmiy resurslaridan foydalanishga keng imkon yaratilgandagina ilmiy tashkilotlar hamda muassasalar salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish ta’minlanadi. Buning uchun ilmiy tashkilotlar huzurida ilmiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha jamoaviy foydalaniladigan ilmiy laboratoriylar hamda GLP va GMP jahon standartlariga mos uskunalar bilan jihozlangan zamonaviy laboratoriya majmualari bosqichma-bosqich tashkil etiladi;

- nodavlat loyiha va konstruktorlik tashkilotlarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi va investitsiya dasturlari doirasida qo‘llab-quvvatlanadi;

- ilmiy tashkilotlar, universitetlar tarkibida ilmiy-innovatsion klasterlar, innovatsiya markazlari, konstruktorlik ustaxonalari, biznes akseleratorlar, startap akseleratorlari tashkil qilinadi. Hududiy markazlarda esa innovatsiya markazlari, yoshlar texnoparklari, texnologiyalar transferi markazlari, kichik ilmiy-ishlab chiqarish klasterlari hamda innovatsion poligonlar tashkil qilinadi;

- ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, mahsulotlar marketingi bilan shug‘ullanadigan alohida kompaniyalar tashkil etilib, ilm-fanga oid dasturlar doirasida yaratilgan yangi ishlanmalar marketingini yuritish va sheriklikda tijoratlashtirish majburiyatları yukланади;

- xususiy sektor va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, jumladan davlat boshqaruvi organlari ishtirokidagi jamg‘armalar tashkil qilinadi hamda yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi;

- rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, ilmiy ekspertiza jarayonida «manfaatlar to‘qnashuvi» omillarini cheklash maqsadida ilmiy loyihalar ekspertizasiga mas’ul tuzilma tashkil qilinib, muhokamalarga chet el mutaxassislarini jalb qilgan holda ekspertizaning to‘la interaktiv platforma orqali o‘tkazilishi ta’minlanadi.

Shuningdek, ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish borasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- milliy ilmiy portalni yaratish: portal doirasida mamlakatning ilmiy salohiyatiga oid barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan yagona akademik makon, ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish uchun arizalarni avtomatik tarzda topshirish va ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi yaratiladi;

- olimlar, tashkilotlar, ilmiy-texnik axborot manbalari reytinglarini joriy etish: boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborotning muhim rolini hisobga olgan holda ilmiy salohiyatni baholash ko‘rsatkichlari joriy etiladi. Ob’ektiv miqdoriy ko‘rsatkichlarning joriy etilishi moliyalashtirish uchun loyihalarni tanlab olish va natijada ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi;

- ilmiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishni prognozlash: ilmiy va texnologik rivojlanishni prognozlashning tizimli jarayoni mahalliy va jahon miqyosidagi ilmiy

hajmdor mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari tomonidan talab qilinadigan ilmiy tadqiqotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirish uchun zarurdir.

- mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini baholash: ilm-fan sohasi holati va uni yanada rivojlantirish tendensiyalari tahlili, so‘nggi yillarda mamlakatimiz ilm-fanining sifatlari va miqdoriy rivojlanishini o‘rganish, mahalliy ilmiy-texnik salohiyatning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va tahlil qilish, ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarini faoliyatini hamda ilmiy infratuzilmani rivojlantirish samaradorligini tahlil qilish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir qiluvchi mexanizmlarini o‘rganish, ilmiy-tadqiqot dasturlarining samaradorligi va natijadorligini baholash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlarida ishlar amalga oshiriladi.

Konsepsiyaning amalga oshirilishi quyidagi natjalarga olib keladi:

- ilmiy tadqiqotlar dasturlari muvofiqlashtiriladi va samarali boshqariladi, ular ustuvor ilmiy yo‘nalishlarga qayta yo‘naltiriladi;
- ilm-fanning asosiy, dasturiy-maqsadli va grant tizimida moliyalashtirilishi orqali davlat va xususiy sektor tomonidan muvozanatli moliyalashtirishga erishiladi;
- Good Scientific Practice (GSP) va Good Laboratory Practice (GLP) standartlarini joriy etish amalga oshiriladi, GLP va Good Manufacturing Practice (GMP) standartlari bo‘yicha xalqaro mezonlarga mos keladigan milliy ilmiy laboratoriyalarning faoliyati tashkil qilinadi;
- olimlarning intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarini himoya qilish maqsadida plagiat va ilmiy g‘oyalarni o‘zlashtirish holatlari bartaraf etiladi;
- ilm-fan sohasi xodimlarini moddiy rag‘batlantirishning yangi tizimi joriy qilinadi;
- respublikamizda va xorijda tadqiqot natijalari hamda ishlanmalarni patentlash faolligi oshiriladi;
- ustuvor ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilm-fanga oid dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshiriladi va raqobatbardosh natjalarga erishiladi;
- qo‘shma ilmiy-texnik dasturlarni amalga oshirish mexanizmlarini joriy etish, ilmiy loyihalarni birgalikda moliyalashtirish va xususiy sektorni rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish orqali tadbirkorlik sub’ektlarining, shu jumladan milliy kompaniyalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi ishtiropi kengaytiriladi;
- biznes talablariga javob beradigan ilmiy ishlar natijalarini hujjatlashtirish tizimi yaratiladi;
  - bozorda ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalari va ishlanmalar tijoratlashtiriladi;
  - ilmiy-tadqiqot hisobotlari xalqaro boshqaruv va ilmiy amaliyotga muvofiqlashtiriladi;
  - mahalliy va jahon ilmiy-texnik axborotidan foydalanuvchilar uchun samarali va qulay sharoitlar yaratiladi;

- xorijiy investorlar ishtirokida ilmiy markazlar tashkil etiladi;
- zamonaviy va rivojlangan ilmiy-innovatsion infratuzilmani yaratish hisobiga ilmiy yutuqlar almashinuvi kengaytiriladi.

### **1.3. Ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari.**

Mamlakatimizda ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatni amalga oshirish, ilmiy-texnikaviy va innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishda mavjud moliyaviy va moddiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2018 yil 14 iyuldaggi PQ-3855-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga asosan quyidagilar ilmiy-tadqiqot va oliv ta'lim muassasalarining (keyingi o'rnlarda muassasalar deb yuritiladi) ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish sohasidagi asosiy vazifalari etib belgilandi:

respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini jadal va keng joriy etish;

fanlararo aloqalarni, shu jumladan, xalqaro fanlararo aloqalarni shakllantirish jarayonlarini rag'batlantirish, qo'shma dasturlar ishlab chiqish va jamoalarni yaratish;

ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatni iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirishning aniq vazifalarini hal etishga, shuningdek, ichki va tashqi bozorlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan amaliy natijalarni olishga yo'naltirish;

yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yaratishga xizmat qiladigan yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish sohasida innovatsion tadqiqotlarni olib borish;

tadqiqotlarni mamlakatni izchil rivojlantirish bo'yicha zamon talablariga javob beradigan, tijoratlashtirish darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlar va texnologiyalarni jadal ishlab chiqishga yo'naltirish.

Quyidagilar esa ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning asosiy usullari etib belgilandi:

ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalaridan foydalangan holda yaratilgan tovarlarni (bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlarni) realizatsiya qilish yoki ushbu natijalardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

tijorat tashkilotlarini tashkil etish, bunda ularning ta'sischilaridan biri ustav fondiga hissa sifatida intellektual mulk ob'ekti yoki tayyor texnologiyani kiritgan muassasa (yoki ixtisoslashtirilgan affillangan tashkilot) hisoblanadi;

intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan mulk huquqlarini uchinchi shaxslarga o'tkazish va mazkur ob'ektlardan foydalanish huquqini litsenziya shartnomalarini

tuzish orqali, shu jumladan, ularni keyinchalik ushbu huquqlar oluvchisi tomonidan tijoratlashtirish sharti bilan berish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldaggi PQ-3855-son hamda «Fan va oliv ta’lim sohasi xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 20 iyuldaggi PQ-3876-son qarorlariga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 dekabrdagi “Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatning istiqbolli yutuqlarini joriy qilishning samarali mexanizmlarini tatbiq etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 979-tonli qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan “Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish Prezident jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi.

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish Prezident jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini, shuningdek, Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan moliyalashtirayotgan ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini baholash, tanlab olish va tijoratlashtirish tartibini belgilaydi.

Quyidagilar Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirishning asosiy manbalari qilib belgilandi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lari;

grantlar va xalqaro moliyaviy institutlar hamda boshqa xorijiy donorlar kreditlari;

Jamg‘armaning vaqtincha bo‘s sh mablag‘larini tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat ishlanmalarining natijalarini qo‘llash orqali yaratilgan (bajarilgan, ko‘rsatilgan) mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish yoki ushbu natijalardan shartnoma asosida o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

tijorat tashkiloti tuzish natijasida ustav fondiga ta’sischilardan biri o‘z ulushi sifatida intellektual mulk ob’ektini yoki tayyor texnologiyani kirituvchi muallif (mualliflar) hisoblangan jismoniy va yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin;

yaratilgan intellektual mulk ob’ektlarini uchinchi shaxsga egalik huquqini o‘tkazishda hamda litsenzion shartnomalar tuzish orqali ushbu ob’ektlardan foydalanishni taqdim qilish, shu bilan birga, ushbu huquqlar egalari tomonidan ularni keyinchalik tijoratlashtirish sharti bilan;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan

Shuningdek, ushbu qaror bilan “Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari ishlab chiqilishi hamda tijoratlashtirilishida ishtirok etayotgan ilmiy-tadqiqot va oliv ta’lim muassasalaridagi mualliflar va ilmiy jamoalarga qo‘sishma bir martalik mukofot

to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi va “Patentga layoqatli istiqbolli texnik yechimlar va ishlab chiqarish sirlari (nou-xaular)ni o‘z ichiga olgan tijorat siri rejimida himoya qilinadigan intellektual mulk ob’ektiga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatga olish va boshqalarga o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomlar ham tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish Prezident jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini baholash va tanlab olishni o‘tkazish qo‘yidagi sxema orqali amalga oshiriladi.

Босқичлар	Субъектлар	Тадбирлар	Кўриб чиқиши муддатлари
1-босқич	Ариза берувчи	Вазирликка ёзма тарзда зарур хужжатлар (хат/ариза, бизнес-режа/ТИА лойиҳаси ва бошқа зарур хужжатлар) тўплами билан мурожат килади.	Ариза берувчининг хошинига кўра
2-босқич	Ишчи орган	Ариза берувчи томонидан тақдим этилган хужжатларнинг зарур хужжатлар рўйхатига мувофиқлигини ўрганиб чиқади ва тижорат банкларига кўриб чиқиши учун юборади.	Ариза келиб тушган кундан бошлаб 5 иш куни мобайнида
3-босқич	Тижорат банклари	Жамғарма маблағлари хисобидан молиялаштириладиган лойиҳаларнинг мустақил экспертизасини ўтказади. Лойиҳа маъкулланган тақдирда Вазирlikка Жамғарма маблағлари хисобидан молиялаштиришини очиш учун асосланган хulosса билан буюртманома киритади.	Лойиҳа кўриб чиқиши учун киритилганидан сўнг 5 иш куни мобайнида
4-босқич	Хайъат	Тижорат банки тақдим этган буюртманома ва унга илова қилинган хulosани кўриб чиқади. Тижорат банки тақдим этган буюртманома ва хulosани кўриб чиқиши натижалари бўйича лойиҳанинни Жамғарма маблағлари хисобидан молиялаштириши ёки молиялаштиришини бекор килиши тўғрисида карор қабул килади.	Тижорат банкининг буюртманомаси ва хulosаси келиб тушган кундан бошлаб 3 иш куни мобайнида
5-босқич	Ишчи орган	Қабул қилинган карор тўғрисида Вазирlik, ариза берувчи ва тегишли тижорат банкини хабардор килади.	Баённома расмийлаштирилгандан сўнг 2 иш куни мобайнида
6-босқич	Тижорат банки	Жамғарма маблағлари хисобидан беғараз маблаг ажратиш тўғрисида Вазирlik билан келишувни имзолайди.	3 иш куни мобайнида

Tijoratlashtirish - bu mulkchilik (innovatsiya) ob’ektini savdo orqali foydaga aylantirish jarayoni. Yoki tijoratlashtirish deganda uni sotishdan yoki o‘zi ishlab chiqarishida ishlatishdan daromad olish tushuniladi. Shuningdek, ular tijoratlashtirishni ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini o‘z vaqtida bozorda mahsulot va xizmatlarga aylantirish jarayoni deb ta’riflaydilar. Boshqacha qilib aytganda, tijoratlashtirishni innovatsion mahsulotlarni bozorga chiqarish jarayoni deb tasavvur qilish mumkin. Ushbu jarayon bir nechta ketma-ket bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqichda, agar kompaniya bir nechta innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan bo‘lsa, u bozorga olib chiqish uchun eng foydali bo‘lganlarni baholaydi va tanlaydi. Baholash ekspertiza shaklida ma’lum mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi: innovatsion mahsulotning potensiali, ushbu mahsulotga jamiyatdagi talab,

potensial xaridorning (ma'lum bozor segmentida) mahsulotga bo'lgan talabi, mahsulotni sotishdan kelib chiqadigan potensial iqtisodiy samaradorlik (sof joriy qiymat, ichki rentabellik darajasi, qoplash muddati va boshqalar). va boshqalar. Tijoratlashtirish jarayonining ikkinchi bosqichi zarur mablag'larini ishlab chiqarishdir. Bir nechta innovatsion korxonalarda ishlanmalarni mustaqil ravishda moliyalashtirish uchun yetarli mablag' mavjud bo'lganligi sababli, ushbu bosqichda korxonaning asosiy vazifasi investorni jalb qilishdir.

Uchinchchi bosqichda yaratilgan yangilikka bo'lgan huquqlar jarayonning barcha ishtirokchilari o'rtaida taqsimlanishi bilan mustahkamlanadi. Va nihoyat, tijoratlashtirishning to'rtinchi va oxirgi bosqichi, agar kerak bo'lsa, uni yanada takomillashtirish bilan yangilik ishlab chiqarishni tashkil etishni yoki uni ishlab chiqarish jarayoniga kiritishni o'z ichiga oladi. Innovatsion korxonalar tijoratlashtirish jarayonining yagona ishtirokchilari emas. Umuman olganda, innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish jarayonining barcha ishtirokchilarini ikkita toifaga bo'lish mumkin – innovatsiyalarni ishlab chiquvchilar va ularning xaridorlari (investorlar). Innovatsiyalarni tijoratlashtirish - bu muvaffaqiyatli bo'lsa, kelgusi daromadlarda ishtirok etish asosida ushbu yangilikni amalga oshirish bo'yicha faoliyatni moliyalashtirishga investorlarni jalb qilish. Shu bilan birga, innovatsion loyihani bozorga chiqarish jarayoni innovatsion faoliyatning asosiy bosqichidir. Innovatsion loyihani bozorga chiqarish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Agar korxonada bir nechta loyihalar mavjud bo'lsa, unda bozorga kirish uchun tijorat salohiyatiga va rivojlanishga tayyorligi yuqori bo'lgan loyihalarni tanlash kerak.
2. Pul mablag'larini shakllantirish. Odatda kompaniyada o'z mablag'larini yo'q yoki yetarli emas. Bunday holda, investorlarni jalb qilish kerak.
3. Loyihaga huquqlarni berish va ishtirokchilar o'rtaida tarqatish.
4. Innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga kiritish yoki agar kerak bo'lsa, keyinchalik qayta ko'rib chiqish bilan yangilik ishlab chiqarishni tashkil etish.

Innovatsiyalarni ishlab chiquvchilarga quyidagilar kiradi:

- tadqiqot institutlari - hozirgi paytda tijoratlashtirish jarayonining eng muvaffaqiyatli va jadal rivojlanayotgan ishtirokchilaridan biri bo'lib, juda ko'p sonli istiqbolli ishlanmalar mavjud. Bu yerda tijoratlashtirish jarayoni institutning o'zi emas, balki uning egasi (rivojlanish buyurtmachisi) - davlat, yirik firma, xususiy investor tomonidan amalga oshiriladi;
- kichik va o'rta korxonalar, shuningdek, tadqiqot institutlaridan farqli o'laroq, mustaqil ravishda (yoki vositachilar orqali) amalga oshiradigan tijoratlashtirish jarayonining tez rivojlanayotgan ishtirokchisidir;
- ixtirochilar va yakka ixtirochilar jamoalari - asosan ilmiy tadqiqot institutlari yoki korxonalardan "ajratilgan" yosh olimlardan iborat. Ular ko'pincha ko'plab ishlanmalarni boshdan kechirishadi, ammo ularni bozorda ishlatishga qodir emaslar.

Innovatsiyalarni xaridorlari (investorlar) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat

mablag‘lari va dasturlari - dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida qo‘llaniladi va innovatsiyalarni ishlab chiquvchilarni moliyaviy, axborot va boshqa manbalar bilan ta’minlashga, shuningdek ishlanmalarining tijoratlashtirishiga ko‘maklashishga mo‘ljallangan; - nodavlat fondlari, grantlar va dasturlar - davlat xizmatlari kabi bir xil xizmatlarni taqdim etadi; - vechur fondlari va “biznes farishtalari” - investitsiyalarni qaytarish yoki kapitaldagi ulush evaziga yoki yaratilgan yangilikka bo‘lgan huquqlarni berish evaziga innovatsiyalarni ishlab chiquvchilarga katta moliyaviy yordam ko‘rsatadilar; - yirik va o‘rta firmalar - yangiliklarni yaratish va ilgari surish yoki ularni o‘z ishlab chiqarishlarida joriy etish maqsadida ularni yaratish va ilgari surishni to‘liq moliyalashtirish. Innovatsiyalarni ishlab chiquvchilar va xaridorlari o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradigan innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish jarayonining yana bir ishtirokchisini ajratib ko‘rsatish mumkin - bular turli xil brokerlik, konsalting yoki yuridik xizmatlarni, shu jumladan himoya qilish va targ‘ib qilishni o‘z ichiga olgan innovatsiyalarni o‘tkazish, konsalting kompaniyalari, innovatsion markazlar va biznes-inkubatorlar, ishlab chiquvchilarning intellektual mulki bozori. Tijoratlashtirish jarayonida innovatsion korxonalar uchun eng muhim nuqta bu tijoratlashtirish usulini tanlashdir. Har qanday innovatsion mahsulot o‘ziga xosdir va muayyan muammoni hal qilish uchun mo‘ljallangan, shuning uchun korxonalar ushbu masalaga jiddiy yondashishlari kerak. Bugungi kunda, xalqaro tajribaga ko‘ra, yangiliklarni tijoratlashtirishning uchta asosiy usuli mavjud.

Tijoratlashtirish jarayonida usulni tanlash juda muhimdir. Korxona tanlovi bor: loyihani mustaqil ravishda tijoratlashtirish va yuqorida sanab o‘tilgan barcha bosqichlardan o‘tish, yoki siz litsenziyani yoki to‘liq barcha huquqlarni sotishingiz mumkin. Har bir usul ishlab chiquvchilarga keng dastur variantlarini taqdim etadi. Loyihadan foyda olish imkoniyatlari ham loyihaning o‘ziga bog‘liq. Agar siz uskunalarni yaratgan bo‘lsangiz, unda uni sotish mumkin, agar siz menejment yoki texnologik yangiliklarni taklif qilgan bo‘lsangiz, u holda korxona muhandislik xizmatlarini ko‘rsatishi mumkin. Siz shunchaki o‘zingizning yangilikningiz uchun litsenziyani sotishingiz yoki ijaraga berishingiz mumkin. Ushbu maqsadlar uchun, agar kerak bo‘lsa, kompaniya o‘z xodimini sherikga sirlarni o‘tkazishda yordam berish uchun yuborishi mumkin. Ba’zida bir vaqtning o‘zida yangiliklarni tijoratlashtirishning bir nechta usullaridan foydalanish mumkin.

Usullarning har biri innovatsion korxonalarga o‘z ishlanmalarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Tijoratlashtirish jarayonining barcha bosqichlaridan o‘tgan korxona mustaqil ravishda o‘zining innovatsion mahsulotini bozorga chiqarishi mumkin. Agar innovatsion mahsulot uskunalar bo‘lsa, unda ishlab chiqarish boshlangandan keyin korxona nafaqat uni sotishdan foyda olish, balki uni ijaraga olish imkoniyatiga ham ega. Innovatsiya ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan taqdirda, kompaniya boshqa kompaniyalarga muhandislik

xizmatlarini ko‘rsatishi mumkin.

Boshqa tomondan, innovatsion korxona o‘z innovatsiyasi uchun litsenziyani sotish yoki yangilikni ijaraga olish (franchayzing) imkoniyatiga ega. Agar kerak bo‘lsa, korxona o‘z xodimini, masalan, sherik korxonasini yuborishi va shu bilan ishlab chiqarish sirlarini o‘tkazishi mumkin. Shuningdek, innovatsion korxona innovatsiyalarga bo‘lgan barcha huquqlarni to‘liq sotish va ushbu faoliyat sohasini tark etish yoki unga huquqlarni saqlab qolish yoki to‘liq o‘tkazish imkoniyati bilan mijoz bilan (agar mavjud bo‘lsa) innovatsion mahsulot ishlab chiqarish uchun shartnoma tuzish imkoniyatiga ega.

So‘nggi yillarda ilm-fan sohasini ustuvor rivojlantirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 4947-sonli Farmoni;

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” 2019 yil 29 oktabrdagi O‘RQ-576-son Qonuni;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” 2017 yil 29 noyabrdagi PF-5264-son Farmoni;

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018 yil 29 sentabrdagi PF-5544-son Farmoni;

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017 yil 30 noyabrdagi PQ-3416-son qarori;

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ‘Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiytadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 17 fevraldagagi PQ-2789-son qarori;

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018 yil 5 maydaggi PQ-3697-son qarori;

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018 yil 7 maydaggi PQ-3698-son qarori;

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 9 martdaggi 133-son qarori;

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘sishimcha haq to‘lash tartibi to‘g‘risida” 2019 yil 24 dekabrdagi 1030-son qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabr “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonuni.

12. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyul «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida» gi O‘RQ-630-sonli Qonuni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-6097-sonli Farmoni.

Respublikamizda ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlanmalarning sifati, samaradorligi va manfaatdorligini ta’minlash maqsadida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan jami 49 ta normativ-huquqiy hujjat joriy qilindi va qator yangi hujjatlar ustida ishlanmoqda. Bu sa’y-harakatlar, albatta, soha rivojida, ilmiy faoliyat sub’ektlarining huquq va manfaatlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

#### **1.4. Ilmiy ishlanmalar va tijoratlashtirish ob’ektlari. Innovatsion ishlanmalar, davlat ilmiy-texnik dasturlari, loyihalari, startap-loyihalarni rasmiylashtirish.**

Qo‘yilgan ilmiy muammoni hal etish uchun maqsad va vazifalar, ijrochilar va bajarish muddatlari, manbalar va vositalarni ko‘rsatgan holda shakllantirilgan chora-tadbirlar majmui ilmiy loyiha hisoblanadi.

Ilmiy loyihalar qo‘yilgan muammoning ilmiy yoki texnik yechimini topish, nou-xau yoki yangi texnologiyalarni olish va yangi xizmat turlarini yo‘lga qo‘yishga qaratilishi mumkin. **Qo‘yilgan maqsad va vazifalardan, amalga oshirish shaklidan kelib chiqib, ilmiy loyihalar quyidagi turlarga bo‘linadi:** fundamental loyihalar; amaliy loyihalar; innovatsion loyihalar.

Fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar tanlov asosida, ayrim hollarda belgilangan tartibda tanlovdan tashqari moliyalashtiriladi.

**Fundamental tadqiqotlar** – tabiat, jamiyat va insonning tuzilishi, shakllanishi va rivojlanishiga oid asosiy qonuniyatlar haqidagi yangi bilimlar olish, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, shuningdek, muayyan faoliyat natijasida yaratilgan ob’ektlarni o‘rganishga ixtisoslashgan nazariy va (yoki) tajriba o‘tkazishga qaratilgan tadqiqotlardir. Fundamental tadqiqot loyihalarining bajarilish muddati besh yilgacha bo‘lishi mumkin.

**Amaliy tadqiqotlar** – amaliy maqsadlarga erishish hamda aniq vazifalarni hal etish uchun, asosan, yangi bilimlar va fundamental tadqiqotlar natijalarini qo‘llashga

yo‘naltirilgan tadqiqotlardir. Amaliy loyihalarning bajarilish muddati uch yilgacha bo‘lishi mumkin.

**Innovatsion loyihalar** – amalga oshirish muddati, infratuzilmasi, ijrochilar, moliyalashtirish manbai va hajmiga ega innovatsiyani yaratish hamda ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan tadqiqotlardir. Innovatsiya ishlarining bajarilish muddati ikki yilgacha bo‘lishi mumkin.

**Tajriba-konstrukturlik loyihalari** – tajriba, konstrukturlik namunalari, asboblar, materiallar, buyumlar va boshqa ilmiy ishlanmalarni loyihalash, tayyorlash va sinovdan o‘tkazish, rivojlantirish bilan bog‘liq loyihalar. Bu turdagiloyihalarning bajarilish muddati ikki yilgacha bo‘lishi mumkin. Fundamental, amaliy, innovatsion va tajriba-konstrukturlik loyihalari rahbarlari ilmiy darajaga ega bo‘lishlari shart. Shuningdek, loyiha rahbari bir vaqtning o‘zida ikkita bir xil turdagiloyihaga ilmiy rahbarlik qilishi mumkin emas. Moliyalashtirish shakli va usuliga ko‘ra loyihalar quyidagi turlarga bo‘linadi: Tematik, maqsadli va tashabbuskor loyihalar fundamental, amaliy, innovatsion yoki tajriba-konstrukturlik shaklida bo‘lishi mumkin.

**Tematik ilmiy-tadqiqot loyihalari** – ilmiy faoliyatning ilg‘or yo‘nalishlari, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning ehtiyojlari va muammolaridan kelib chiqqan holda, davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari ehtiyojlari asosida ishlab chiqiladigan, moliyaviy hajmi ko‘rsatilgan, mavzu doirasida olinadigan yakuniy mahsuloti aniq aks ettirilgan, muntazam ravishda e’lon qilinadigan, tanlov asosida moliyalashtiriladigan ilmiytadqiqot loyihalaridir.

**Maqsadli loyihalar** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari oldida turgan muammolarni hal etish maqsadida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Maqsadli loyihalar Ilmiy-texnik kengashlar tavsiyasiga ko‘ra tanlovsiz moliyalashtiriladi.

**Tashabbuskor loyihalar** tanlovlari uchun mavzular shakllantirilmaydi. Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e’lon qilinadigan ushbu turdagitanlovga istalgan mavzudagi dolzarb muammolarning ilmiy yechimi hamda aniq natijaga qaratilgan loyihalarni taqdim etish mumkin. Tashabbuskor loyihalar tanlovida bir mavzu doirasida muqobil (alternativ) loyihaning tanlovga kelib tushishi talab etilmaydi.

**Startap» loyihalar** — amalga oshish xavfi yuqori bo‘lgan sharoitda yangi mahsulot yoki xizmat turini yaratuvchi innovatsion ishlanmalarning qo‘llanilishi, ko‘lami va tez o‘sish sur’ati bilan farqlanadigan yangi biznes loyiha;

**Innovatsion ishlanma** — mavjud o‘xhash intellektual faoliyat natijalariga nisbatan yangi belgilarga ega bo‘lgan, amalda qo‘llash mumkin bo‘lgan va amaliyotda

undan foydalanganda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlay oladigan intellektual faoliyat natijasi (ishlab chiqarish, ma'muriy, tijorat yoki boshqa xususiyatga ega yangi yoki mukammal texnologiya, xizmat va tashkiliy-texnik yechim).

**Texnologiyalar transferi** — yangi ishlanmani u olinadigan (ishlab chiqariladigan) sohadan amalda qo'llash sohasiga o'tkazishga qaratilgan tadbirlar majmuidir.

### **Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida tematik loyihalar mavzusini shakllantirish**

Tematik loyihalar mavzulari davlat boshqaruvi, xo'jalik va mahalliy davlat hokimiyati organlari, ilmiy faoliyat sub'ektlarining asoslangan takliflari asosida Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi. Tematik loyihalar mavzulari vazirlik so'roviga asosan yoki ixtiyoriy ravishda taqdim etilishi mumkin. Taklif etilayotgan loyiha mavzusida quyidagi jihatlar aks etishi kerak:

- ilmiy-tadqiqot mavzusi dolzarb, mavzuda aniq yakuniy mahsulotga buyurtma aks etgan bo'lishi;
- fan va texnologiyalar rivoji uchun ustuvorligi;
- iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va respublika hududlarining aniq muammolarini hal etishga qaratilganligi;
- loyiha natijasida yakuniy mahsulot yaratilishi asoslanganligi;
- ishlanmaning raqobatbardoshliligi;
- tayyor mahsulotni ishlab chiqishga yo'naltirilganligi;
- loyiha natijalarining tijoratlashtirish imkoniyati mavjudligi;
- loyihaning natijadorligi (mahsulot yoki takomillashtirilgan texnologiya);
- loyihaning moliyalashtirish prognoz hajmlari belgilanganligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018 yil 14 iyuldaggi PQ-3855-son qarorining 6-bandida "*O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar bo'yicha davlat ilmiy-texnik dasturlarini bajarish doirasida muassasalar tomonidan yaratilgan ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalari, davlat ilmiy-texnik loyihalar yakunlanganidan va (yoki) ular belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin tijoratlashtirilishi lozim, fundamental tadqiqotlar natijalari, shuningdek, gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasidagi loyihalar bundan mustasno*" deb belgilangan. Gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasidagi loyihalarning ijtimoiy ahamiyati inobatga olinadi. Dolzarb muammo yechimiga qaratilgan mavzu quyidagi shakl asosida shakllantiriladi.

### **Bajarilishi uch (muddati) yilga mo'ljallangan amaliy (loyiha turi) loyihalar**

**tanlovi mavzusi**

<b>Fan sohasi yo‘nalishi</b>		
<b>Ilmiy-texnik loyiha mavzusi</b>	<b>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</b>	<b>Loyihaning yillik moliyalashtirish hajmi (mln. so‘mda)</b>
<b>Tadqiqot mavzusi</b>	<p><b>Tadqiqot shakli:</b> tadqiqot qanday shakl va uslubda amalga oshirilishi ko‘rsatiladi</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijaları:</b> tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bajariladigan asosiy bosqichlar izchil ketma-ketlikda ko‘rsatiladi; yakunda olinadigan natija/mahsulot aniq ko‘rsatiladi.</p> <p><b>Natijalarini sinovdan o‘tkazish:</b></p>	<p>... mln. so‘m</p> <p>Tadqiqotni amalga oshirish uchun talab etiladigan</p>
	<p>Tadqiqot natijalarini qay tartibda va usulda tajriba/sinovdan o‘tkazish qayd etiladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarini chop etish:</b> tadqiqot davomida va yakunida qo‘lga kiritilgan natijalarning nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda chop etilishi, shuningdek, intellektual mulk ob’ektlari uchun olinadigan hujjatlar ko‘rsatiladi.</p>	mablag‘ miqdori ko‘rsatiladi
	<b>Jami yillik:</b>	... mln. so‘m

*Amaliy (innovation) loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi ... mlrd. so‘m va bajarilishi ... yilga mo‘ljallangan.*

Mazkur shaklda loyiha bajarilishining dastlabki yili (birinchi yili) uchun talab etiladigan mablag‘ miqdori aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda ko‘rsatilishi talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga asosan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar miqdori oshgan holatlarda loyihaning keyingi yillardagi moliyalashtirish hajmiga o‘zgartirish kiritiladi.

Loyiha mavzusi shakllantirilgach, tashkilotning Ilmiy (Ilmiy-texnik) kengashida muhokama qilinib, yuqori turuvchi tashkilot – vazirlik, idora yoki qo‘mitaga taqdim etiladi (*tashkilot va korxonalar tomonidan to‘g‘ridan- to‘g‘ri yo‘llangan tematik loyihamalar mavzulari ko‘rib chiqilmaydi*).

Yuqori turuvchi tashkilot taqdim etilgan mavzularni ko‘rib chiqadi, saralaydi va Innovatsion rivojlanish vazirligiga rasmiy xat orqali yuboradi. Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan tematik loyihamalar mavzularini onlayn qabul qilish uchun elektron platforma ishga tushirilgan. Buning uchun vazirlikning [www.mininnovation.uz](http://www.mininnovation.uz) rasmiy veb-saytidagi “*Tanlovlari*” bo‘limidagi “*Mavzu yuborish*” interaktiv xizmatidan foydalilanildi. Iqtisodiyotning real sektoriga qarashli yirik ishlab chiqarish korxonalari yoki tarmoqlarning ilmiy yechimini kutayotgan muammolari va ehtiyojlari bo‘yicha takliflari to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazirlikka ko‘rib chiqish uchun taqdim etilishi mumkin. Bunda ilmiy loyihamalar natijalarining iste’molchisi va amaliyatga joriy etuvchisi shu korxona yoki tarmoq bo‘lishi kerak. Vazirlik 30 kun davomida kelib tushgan mavzular ro‘yxatini shakllantiradi va o‘rganib chiqadi. Mavzularni o‘rganish jarayoniga zarur hollarda, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha mutaxassislari, xorijiy ekspertlar ham jalb etilishi mumkin. Vazirlik taklif etilgan mavzular, tadqiqotni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar, loyihamining moliyaviy hajmi va bajarilish muddatini o‘z vakolatidan kelib chiqqan holda o‘zgartirishi mumkin. O‘rganish natijalariga ko‘ra, salbiy baholangan mavzular rad etiladi yoki qayta ishlash uchun taklif beruvchiga qaytariladi. Zarur hollarda tematik mavzular taklif beruvchini jalb qilgan holda qayta ishlanishi yoki takomillashtirilishi mumkin. Taklif etilayotgan tematik loyihamalar mavzulari **o‘zbek va rus tillarida imloviy va uslubiy xatolarsiz** berilishi shart (zarur hollarda ingliz tilidagi varianti ham talab etiladi).

Tematik loyiha mavzusini shakllantirishga qo‘yilayotgan talablarni quyidagi misol yordamida aniq tasavvur qilish mumkin:

Aytaylik, alohida olimlar tomonidan shartli ravishda “kolba”ni ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish yuzasidan tashabbus bildirildi. Shu paytga qadar “kolba” ishlab chiqarish bo‘yicha o‘nlab ilmiy loyihamalar turli davrlarda bajarilgan. Qaysidir ilmiy loyiha “kolba”ning “uzunchoq” shaklini, yana biri “yumaloq” shaklini, boshqasi “qizil” yoki “ko‘k” rangli variantini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Ya’ni mazmun o‘zgarmagan, yangi mahsulot yaratilmagan, faqat uning shakli yoki rangiga o‘zgartirish kiritilgan, xolos.

Bugungi talab esa tadqiqot yakunida aniq natija (mahsulot) – “sinmaydigan” yangi kolba turini yaratish texnologiyasi bo‘lishi kerak. Tadqiqot yakunida “kolba” qattiq yuzaga tashlab ko‘rilganda, biror jism bilan urilganda, sinmasligi shart – bu ushbu mavzu doirasidagi davlat buyurtmasiga talab. Demak, tematik loyiha mavzusini **“Sinmaydigan kolbani ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish”** tarzida aniq

qo‘yish, shunga mos ravishda vazifalar belgilash va tadqiqot yakunida shunday “kolba”ni buyurtmachiga taqdim qilish lozim.



Quyida tematik loyiha mavzusi davlat buyurtmasiga kiritish uchun yuqori turuvchi tashkilotning yo‘llanma xati, tashkilot Ilmiy kengashi bayonidan ko‘chirma hamda taklif etilgan mavzudan namuna berilgan. Ilovada keltirilgan.

#### Бажарилиши уч йилга мўлжалланган амалий лойиҳалар танлови мавзуси

“Биология фанлари” йўналиши бўйича			
№	Амалий войиҳа мавзуси	Лойиҳа бажарилишидан кутилаётган натижা	Лойиҳанинг йиллик молиялаштириш ҳажми
1	2	3	4
	Соя ( <i>Glycine max (L.) Merrill</i> ) ўсимлигининг махсулдорлигини ва тупрок унумдорлигини ошириш учун микроб биотехнологиясини ишлаб чиқиш.	<p><b>Тадқикот шакли:</b> соянинг хосилдорлигини ошириш учун ўсимлик илдиз системасида <i>Bradyrhizobium japonicum</i> бактериялари асосида молекуляр азотни фаол ўзлаштирувчи туганаклар хосил килиш ва тупрокни биологик азот билан бойитиш учун кенг таъсирга эга бўлган биопрепаратни кўллаш.</p> <p><b>Илмий-тадқикот натижалари:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- вегетацион ва дала тажрибаларда дуккакли-ризобиал симбиоз жараёнлари аникланади (азотфиксация, специфилги, вирулентлги) хамда фаол <i>Bradyrhizobium japonicum</i> туганак бактерияларнинг штаммлари танлаб олинади ва ушбу штаммларнинг турли соя навларида туганаклар хосил килиш жараёнлари ўрганилади;</li> <li>- самарадор туганак бактерияларнинг ўстириш шароитлари оптималлаштирилади;</li> <li>- дала тажрибаларида соя навларини фаол <i>B. japonicum</i> маҳаллий штаммлари асосида яратилган биопрепарат билан ишлов бериш усусларини такомиллаштириш натижасида соянинг ўсиши-ривожланиши ва хосилдорлиги оширилади;</li> <li>- соя етиштириладиган тупрокларнинг агро-кимёвий ва агрофизиковий хоссалари ўрганилади ва ўсимликларга ишлов бериш агротехникалари ишлаб чиқилади.</li> </ul> <p><b>Олинган натижаларни синовдан ўтказиш:</b> Соя ўсимлигининг хосилдорлигини ошириш учун <i>B. japonicum</i> маҳаллий штаммлари асосидаги кенг таъсирга эга бўлган биопрепарат соя етиштиришга ихтинослаштирилган фермер хўжаликларида дала- тажриба синовлари ўтказилади ва амалиётга жорий этилади.</p> <p><b>Илмий натижаларни чон этиши:</b> Тадқикот натижаларига интеллектуал мулк обьектлари учун тегишли хужжатлар олинади. Нуфузли илмий журналларда ва Web of Science хамда Scopus майдумотлар базасида индексацияланган журналларда илмий маколалар чон этилади.</p>	1,0 млрд сўм
		<b>Жами ийллик:</b>	1,0 млрд сўм

\*Амалий лойиҳанинг умумий молиялаштириши ҳажми 3,0 млрд. сўм ва бажарилиши муддати уч йилга мўлжалланган.

## Tanlov mavzularini shakllantirishda yo‘l qo‘yilayotgan asosiy kamchiliklar

Ilmiy-tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligi, albatta, mavzuning qanday shakllantirilganligi hamda maqsad va vazifalarning to‘g‘ri va aniq belgilanganligiga bog‘liq. Zero, ilm-fan sohasi oldidagi muhim vazifa – milliy iqtisodiyotimizni texnologik va innovatsion jihatdan modernizatsiyalash jarayonlarini to‘la-to‘kis ta‘minlovchi, samarali va raqobatdosh tadqiqot hamda ishlanmalarini shakllantirishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 iyuldagи PQ-3855-son qaroriga muvofiq, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajarilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlar natijalari ular yakunlanganidan so‘ng to‘liq tijoratlashtirilishi shartligidan kelib chiqqan holda, loyiha mavzusida kutilayotgan natija yoki mahsulot aniq ko‘rsatilishi shart. Ya’ni muayyan muammo yoki uning yechimini “**takomillashtirish**”, “**jadallashtirish**”, “**o‘rganish**”, “**tadqiq qilish**”, “**tahlil qilish**”, “**chuqurlashtirish**”, “**tatbiq etish**”, “**joriy etish**”, “**optimallashtirish**”, “**uslublarini ishlab chiqish**”, “**...xossalari**”, “**...mexanizmlari**” “**...xususiyatlari**”ni o‘rganish, “**lug‘at yoki o‘quv qo‘llanma ishlab chiqish**”ga bag‘ishlangan mavzular amaliy va innovatsion loyihalarga qo‘yilgan hozirgi kun talablariga javob bermaydi va rad etilishiga sabab bo‘ladi.

Tematik loyiha mavzusi aniq texnologiya yaratish yoki ishlab chiqish, yangi nav, tur, prototip, model yoki xizmatning yangi avlodni yoki turini yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida qo‘llanmalar yoki darsliklar, elektron virtual portal, mobil ilova yoki xizmatlar platformasini yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Tematik loyihalar tanlovini e’lon qilish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Vazirlik va idoralar tomonidan taklif etilgan tematik loyihalar mavzulari qabul qilinadi.
2. Mavzular o‘rnatalgan tartibda ma’lumotlar bazasiga kiritiladi va fan yo‘nalishi bo‘yicha tegishli boshqarmalarga yo‘naltiriladi.
3. Tegishli boshqarmalar takliflarni o‘rganib chiqadi va ekspertizadan o‘tkazadi (**1-ilova**). Ekspertiza jarayonida quyidagi jihatlar e’tiborga olinadi:

– qo‘lga kiritilishi rejalashtirilayotgan yakuniy natija (mahsulot, ishlanma, texnologiya)ning tavsifi;

– ehtiyojning mavjudligi (yetarliligi) to‘g‘risida tahliliy ko‘rsatkichlar; xorijiy analoglaridan qiyosiy ustunligini ko‘rsatuvchi indikatorlar;

– taklif etilayotgan mavzu doirasida ilgari bajarilgan (bajarilayotgan) fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarning mavjudligi;

– agar tematik loyiha mavzusini o‘zgartirishga zarurat bo‘lsa, boshqarma tomonidan tavsiya etilgan (shakllantirilgan) mavzu.

4. Ijobiy xulosa berilgan tematik mavzular loyihalar tanlovida e’lon qilish uchun tayyorlanadi (zarur hollarda taklifni qayta ishlash jarayoniga taklif beruvchilar jalb etilishi mumkin). Salbiy xulosa berilgan tematik mavzular bo‘yicha taklif kiritgan

vazirlik va idoralarga asoslantirilgan javob xatlari yuboriladi.

5. Tegishli boshqarmalar tomonidan ekspertizadan o‘tkazilgan mavzular Fan va ilmiy-texnik tadqiqotlarni rivojlantirish boshqarmasi tomonidan umumlashtirilgan holda ko‘rib chiqish (ekspertizadan o‘tkazish) natijalari bo‘yicha yakuniy xulosa beriladi (**2-ilova**).

6. Ekspertiza natijalariga ko‘ra ijobiy baholangan mavzular tanlov e’lon qilish yuzasidan yakuniy xulosa berish uchun Innovatsion rivojlanish vaziriga kiritiladi.

7. Innovatsion rivojlanish vaziri mavzuni tavsiya etish, qayta ishslash yoki rad etish yuzasidan yakuniy xulosa beradi (**3-ilova**).

8. Ijobiy baholangan, avval bajarilmagan, ekspertlar tomonidan dolzarb, aniq mahsulot yoki natijaga qaratilgan, tijoratlashtirish imkoniyati yoki ijtimoiy ahamiyati yuqori deb baholangan mavzular bo‘yicha vazir buyrug‘i asosida tanlov e’lon qilinadi.

Tanlov e’loni *mininnovation.uz* rasmiy veb-saytida yoki boshqa ommaviy axborot vositalariga joylashtiriladi.

Tanlov e’lonida loyihalarni shakllantirish, ro‘yxatdan o‘tkazish va topshirish tartibi, muddati va talablari ko‘rsatiladi.

### **Loyiha talabnomalarini shakllantirish.**

Loyihaning tanlovda g‘olib bo‘lishi va moliyalashtirilishi, albatta, uning qay darajada shakllantirilganligiga, ilmiy-texnik salohiyati va kutilayotgan natijalarning qay darajada asoslab berilganligiga bog‘liq.

**Fundamental loyihalarni shakllantirishda** quyidagi talablarga rioya qilish kerak: tabiat, jamiyat, inson, ong va sun’iy ravishda yaratilgan ob’ektlarning tuzilishi, faoliyati va rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini ochishga qaratilgan yangi bilimlarni egallah; ilm-fanning muayyan sohasidagi tadqiqotlar natijalarini nazariyalar, tushunchalar, metodologiyalar, usullar, tavsiyalar shaklida qo‘llash maqsadida tadqiq etish;

ilm-fan nazariyasi va metodologiyasini boyitish, kelgusida bajariladigan amaliy tadqiqotlar hamda ularni amaliy qo‘llashga qaratilgan innovatsiya ishlari uchun asos sifatida xizmat qilish. Tanlovga taqdim etiladigan fundamental tadqiqotlar loyihalari quyidagi talablarga javob berishi zarur:

Loyiha ijrochilariga qo‘yiladigan talablar: loyiha rahbari tomonidan oxirgi uch yil mobaynida loyiha mavzusi yo‘nalishida Web of Science yoki Scopus xalqaro ilmiy-tahliliy bazalariga kiritilgan jurnallarda kamida 1 ta ilmiy maqola chop etilgan va uning Xirsh indeksi 3 va undan yuqori bo‘lishi (ilmiy maqolaning nusxasi ilova qilinishi lozim); loyihaning hamrahbari nufuzli xorijiy universitet va ilmiy markazlarda (oxirgi uch yilda Times Higher Education World University Rankings bo‘yicha top 1000 talikka kiritilgan universitetlarda) faoliyat ko‘rsatayotgan va loyiha mavzusi yo‘nalishida muhim natijalarga erishgan (ilmiy maktab yaratgan), Xirsh indeksi 5 va undan yuqori bo‘lgan yetakchi olim (shu jumladan, vatandosh olim) bo‘lishi (loyiha

hamrahbари то‘г‘рисидаги ма’лумотлар, унингrozilik xati va muhim ilmiy natijalari ilova qilinishi lozim); loyiha doirasida ijrochi tashkilotning asosiy shtatidagi xodimlar tarkibidan kiritilgan ijrochilardan kamida bittasi tomonidan falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish bo‘yicha dissertatsiyani tayyorlash va himoya qilish rejasining mavjudligi; loyiha ilmiy jamoasining o‘rtacha yoshi 45 yoshdan oshmasligi lozim (o‘rtacha yosh ijrochilar yoshining arifmetik o‘rtacha qiymati sifatida hisoblanadi); loyiha rahbarining bir vaqtning o‘zida boshqa fundamental loyihaga rahbarlik qilmasligi; loyiha doirasida ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy asbob- uskunalar bilan jihozlash bo‘yicha aniq rejaning mavjudligi (loyihaga ilova qilinishi lozim); loyiha ijrochilarining sohadagi nufuzli xalqaro konferensiyalarda ma’ruzachi sifatida ishtirok etishi bo‘yicha aniq rejaning mavjudligi (loyihaga ilova qilinishi lozim); loyiha ijrochilarining tegishliligi bo‘yicha dunyodagi nufuzli fan jamiyatlari bilan aloqalarining mavjudligi va konsorsiumlarda faol ishtirok etishi to‘g‘risida asoslantirilgan ma’lumotlarning ilova qilinganligi; tadqiqot mavzusi bo‘yicha zarur ilmiy salohiyat va ilmiy ma’lumotlarning mavjudligi (yuqori malakali olimlar jamoasi, so‘nggi besh yil ichida nashr etilgan ilmiy nashrlarning soni va sifati, patentlarning mavjudligi, yetakchi milliy va xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlikning mavjudligi va boshqalar); loyiha ijrochilari tarkibida 35 yoshgacha bo‘lgan yosh olimlarning mavjudligi, ularning soni va sifat xususiyatlari; zarur moddiy-texnik bazadan (binolar, jihozlar, inventarlar, dasturiy ta’midot, ma’lumotlar bazasi, axborot resurslari va boshqalar) foydalanish imkoniyati.

### **Loyiha mazmuni quyidagi talablarga mos bo‘lishi zarur:**

tadqiqot natijalarining loyiha yakuni bilan amaliy tadqiqotlar va kelgusida tajriba-konstrukturlik hamda innovatsion loyihalarga o‘tishi sikli aniq ko‘rsatilganligi;

taqdim etilgan loyihaning ijrochi tashkilot ilmiy (ilmiy-texnik) kengashida puxta muhokamadan o‘tkazilib, xalqaro hamkorlar xulosalari bilan asoslantirilganligi hamda yuqori turuvchi tashkilot (vazirlik/idora) tomonidan loyihadan kutilayotgan natijalar respublika iqtisodiyoti va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun zarurligi (ehtiyojning mavjudligi) ta’kidlangan tasdiqlovchi hujjalarning mavjudligi; loyihaning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi; loyihaning maqsadli tanlov mavzusi va shartlariga muvofiqligi; mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning yangiligi va ushbu yo‘nalishda ilmiy natjalarning mavjudligi va darajasi hamda yangi bilimlarni olish, yangi nazariyalar, usullar, tushunchalarni yaratishga qaratilganligi.

### **Fundamental loyihalarni amalga oshirish muddatlarini fan yo‘nalishlari**

#### **kesimida quyidagi muddatlarga muvofiq shakllantirish tavsiya etiladi:**

a) quyidagi fan yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshiriladigan fundamental loyihalarni **3 yil muddatga** (2021–2023 yillar) mo‘ljallab shakllantirish va amalga

oshirish tavsiya etiladi: tarix va ijtimoiy-gumanitar fanlar; filologiya, psixologiya va pedagogika fanlari; iqtisodiyot va huquq fanlari; informatika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;

b) quyidagi fan yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshiriladigan fundamental loyihalarni **4 yil muddatga** (2021–2024 yillar) mo‘ljallab shakllantirish va amalga oshirish tavsiya etiladi: arxeologiya fanlari; qishloq xo‘jaligi, veterinariya va atrof-muhitni muhofaza qilish; arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik; o‘rmon xo‘jaligi; yer to‘g‘risidagi fanlar;

v) quyidagi fan yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshiriladigan fundamental loyihalarni **5 yil muddatgacha** (2021–2025 yillar) mo‘ljallab shakllantirish va amalga oshirish tavsiya etiladi: matematika, fizika, mexanika fanlari; texnika fanlari; tibbiyot fanlari; farmakologiya va farmasevtika; kimyo fanlari; kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar; biologiya, biotexnologiya, ekologiya fanlari. Fundamental loyihani amalga oshirish davri belgilangan besh yilgacha bo‘lgan muddat doirasida uzaytirilgan (yoki o‘zgartirilgan) holatda uning kelgusi (uzaytirilgan va/yoki o‘zgartirilgan) davrda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalari asoslab berilgan va Ijrochi tashkilot Ilmiy (ilmiy-texnik) kengashining qaroriga asosan tasdiqlangan bo‘lsa, loyiha muddatini belgilash masalasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (Buyurtmachi) tomonidan ko‘rib chiqilishi mumkin.

**Amaliy loyihalar** quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- ishlab chiqarish va/yoki ijtimoiy, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yangi konstruksiyalar, materiallar, usullar, xizmatlarni yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirishga xizmat qilishi;

- iqtisodiyotning real sektorini shakllantirishga ko‘maklashish, ishlab chiqarish sohasida energiya va resurslarni tejashni ta’minlash, milliy iqtisodiyot sub’ektlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning innovatsion tarkibi va qo‘srimcha qiymatini oshirish;

- yuqori texnologiyali mahsulotlar namunalarini tayyorlash va/yoki ishlanmalarining texnik va texnologik sinovlari natijalari va/yoki olingan ilmiy-texnik natijani iqtisodiyotning real sektoriga joriy qilish;

- ilmiy-texnik mahsulotlar va unga ilmiy-texnik hujjatlar to‘plamini, shu jumladan, loyihalash hujjatlarini va/yoki texnologik hujjatlarni tasdiqlash, laboratoriya qoidalari va/yoki texnik shartlar va pasportlar, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlar to‘plamini ishlab chiqish.

**Innovatsiya ishlari** quyidagi talablarga javob berishi zarur: avval bajarilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar asosida mahalliy xomashyolardan foydalangan holda, import o‘rnini bosuvchi, eksportga mo‘ljallangan yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratish, mavjudlarini sifat jihatidan takomillashtirish, tannarxini pasaytirish, mehnat bozorida yangi ish o‘rinlarini yaratishni ta’minlash; keyinchalik

ulardan amaliyotda foydalanish maqsadida amalga oshiriladigan konstruktorlik, tajriba namunalari, asboblar, materiallar, buyumlar va boshqa ilmiy ishlanmalarni loyihalash, tayyorlash va sinovdan o‘tkazish, rivojlantirish bilan bog‘liq tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarish; yuqori texnologiyaga asoslangan mahsulotlar namunalari yoki prototiplarini yaratish va/yoki tajriba-laboratoriya texnologiyasini tatbiq etish, ilmiy hajmdor mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada qo‘llash uchun yangi turdagи xizmatlarning tajriba-sinovini o‘tkazish (sog‘liqni saqlash, bank-moliya sektori va boshqalar).

Ilmiy loyihalarni shakllantirishda ilmiy jamoaning salohiyati va ijrochilarining o‘rtacha yoshi **45 yoshdan oshmasligiga** e’tibor qaratish kerak. O‘rtacha yosh sifatida ijrochilar umumiy yoshining arifmetik o‘rtacha ko‘rsatkichi olinadi. Akademik harakatchanlik va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish uchun loyihaga 45 yoshgacha bo‘lgan yosh olimlarning respublikadagi yoki xorijdagi ilmiy va ta’lim muassasalariga qisqa muddatli xizmat safarlari kiritilishi mumkin. Bunda xizmat safarining maqsadi loyiha mazmuni va kalendar ish rejasiga muvofiq bo‘lishi lozim.

Amaliy, innovatsion va tajriba-konstruktorlik loyihalarini amalga oshirishda sanoat yoki tarmoq tomonidan hamkorlikda moliyalashtirishga qiziqish bo‘lgan taqdirda, loyiha talabnomalariga sanoat yoki tarmoq hamkori to‘g‘risidagi ma’lumot va uning moliyaviy ishtiroki (hamkorlikda moliyalashtirish) hajmi va turlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak. Barcha turdagи loyihalarda yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish maqsadida ijrochilar tarkibiga ilmiy stajor lavozimi kiritilishi zarur. Loyihanani to‘liq yoki qisman amalga oshirish uchun xorijlik olimlar, xorijiy ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlaydigan mutaxassislar, ta’lim muassasalarini, tashkilotlar va tadbirkorlik sub’ektlarini jalb qilish mumkin. Loyiha titul varag‘i, ijrochi tashkilot va loyiha rahbari tomonidan imzolanib, tasdiqlanadigan 6 ta shakldan tashkil topadi (**4-ilova**).

### **Loyihanening titul varag‘ini tayyorlashga qo‘yiladigan talablar:**

titul varag‘ida ijrochi tashkilotning yuridik nomi aniq ko‘rsatilishi, uning rahbari tomonidan imzolanishi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi kerak; vazirlik tomonidan belgilangan fan yo‘nalishi aniq yozilishi, ilmiy rahbarning ismi, sharifi, otasining ismi passport ma’lumotlariga to‘liq mos kelishi, ijrochi tashkilot va loyiha rahbarining manzili, bog‘lanish uchun telefon raqamlari, elektron manzili ko‘rsatilishi lozim; loyiha nomi, turi (amaliy, innovatsion, fundamental, tajriba- konstruktorlik) aniq ko‘rsatilishi kerak; loyihanening bajarilish muddati avval sanoq sonda 2 yil, 3 yil tarzida; so‘ng yillar bo‘yicha ko‘rsatiladi; loyihanening umumiy va bir yillik moliyalashtirish hajmi alohida ko‘rsatiladi. Loyihanening titul varag‘ida ko‘rsatilgan umumiy mablag‘ miqdori 1- va 5-shakldagi mablag‘ miqdori bilan bir xil bo‘lishi shart. Mazkur raqamlarning turlicha ko‘rsatilishi loyihanening texnik ekspertiza paytida tanlovdan chetlashtirilishiga sabab bo‘ladi.

## **Loyihaning 1-shakli quyidagi talablar asosida shakllantiriladi:**

1.1-bandda talab etilgan annotatsiya o‘zbek va rus tillarida hajmi 1,5 varaqdan ortmagan holda beriladi. Unda loyihaning ilmiy yangiligi, qo‘yilgan ilmiy muammolarni hal etishning dolzarbliги ochib beriladi;

1.2-bandda kutilayotgan natijalar va ularning ahamiyati, ya’ni kutilgan natijalar hamda ularning ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egaligi, rejalashtirilgan natijalarning jahon miqyosidagi tadqiqot natijalariga muvofiqligi, loyihada rejalashtirilgan natijalarning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari rus va o‘zbek tillarida beriladi;

rus va o‘zbek tillarida berilgan matnlarning mazmun-mundarijasi bir xil bo‘lishi shart.

**Loyihaning 2 va 2a shakllaridagi** ma’lumotlar ijrochilar salohiyatini aniqlash va ilmiy jamoaning tadqiqotni amalga oshirish imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Loyiha rahbari va ishtirokchilarining ilmiy ishlari ro‘yxati (oxirgi 3 yil davomidagi nashrlar quyidagi xronologik tartibda keltirilib, izchil ketma-ketlikda raqamlanadi: monografiya; patent; ilmiy maqola; ilmiy to‘plamlar va boshqa nashr ishlari) 3.4-shaklga qat’iy rioya qilingan holda rasmiylashtirilib, muallif, ilmiy kotib tomonidan imzolanadi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi. Loyihaning **3-shakli** ijrochi tashkilotga oid bo‘lib, so‘ralgan ma’lumotlar aniq berilishi kerak. Loyihaning 4-shaklida quyidagilar aniq ko‘rsatilishi lozim: loyihada hal etiladigan ilmiy muammolar; qo‘yilgan muammoni hal etishning ilmiy ahamiyati va dolzarbliги; loyihada hal etiladigan muammoning miqyosi va murakkabligi, muammoni hal etishga xizmat qiladigan aniq vazifalar. Loyihaning mamlakatda iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlaydigan ilmiy va texnologik zaxiralarni shakllantirish bilan bog‘liqligi; adqiqotning ilmiy yangiligi, qo‘yilgan vazifa(lar)ni hal etish va rejalashtirilgan natijalarni olish imkoniyatlari (*asoslab ko‘rsatiladi*); tadqiqotga qo‘yilgan muammoning o‘rganilish holati, jahon ilm-fanidagi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari va ilmiy raqobatchilar haqida ma’lumot; kamida 2 bet hajmda taklif etilayotgan usul va yondashuvlar, loyiha bajarilishining butun davri uchun umumiyl ish rejasi va kutilayotgan natijalar; loyihani amalga oshirish natijasida ishlab chiqilishi yoki yaratilishi rejalashtirilgan yangi mahsulot (tovar, texnologiya, xizmat)lar, yangi texnologiyalarni yaratish yoki qo‘llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish haqida ma’lumot; ilmiy jamoa tomonidan loyiha mavzusi bo‘yicha mavjud ilmiy zaxiralar (*ilgari olingan natijalar, ishlab chiqilgan dasturlar va uslublar ko‘rsatiladi*); loyihani amalga oshirish uchun ilmiy jamoada mavjud bo‘lgan uskunalar, materiallar, axborot va boshqa manbalar ro‘yxati (*jumladan, loyihani amalga oshirish uchun ulardan foydalanish zarurati ko‘rsatiladi*);

loyihani amalga oshirishning birinchi yilidagi ish rejasi (*loyiha bo‘yicha rejalashtirilgan xizmat safarlari (ekspeditsiyalari)ni o‘z ichiga olgan holda*);

ilmiy guruhdagi har bir ishtirokchi (jumladan, loyiha rahbari)ning loyihani amalga oshirishning bиринчи yilidagi ish mazmuni;

birinchi yil oxirida kutilayotgan aniq ilmiy natijalar;

grant mablag'i hisobidan loyihani amalga oshirish uchun sotib olinishi rejalashtirilayotgan asbob-uskunalar, materiallar, axborot va boshqa manbalar ro'yxati (*loyihani amalga oshirish uchun ulardan foydalanish zarurati asoslab beriladi*).

Loyihaning 5-shakli moliyaviy xarajatlar smetasi bo'lib, uni shakllantirishda quyidagi jihatlar alohida e'tiborga olinishi kerak: ilmiy jamoa tarkibi va har bir lavozimga talablar tavsifi bilan; loyiha mablag'larining ilmiy-tadqiqot loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik resurs bazasini (binolar, jihozlar, inventarlar, dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazalari, ma'lumot manbalari va boshqalar) shakllantirishga yo'naltirilganligi (kamida 40 foiz miqdorida); ilmiy jamoa uchun yaratib beriladigan shart-sharoitlar mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar; xarajatlar yo'nalishlari ko'rsatilgan, zarur moliyalashtirish hajmi va muddatlarini aks ettiruvchi moliyaviy reja va hisob-kitoblar. Loyihaning 5-shaklida uning umumiyligi moliyaviy hajmi, alohida jadvallarda rejalashtirilayotgan xarajatlar va ularning yillar kesimidagi taqsimoti ko'rsatiladi. Amaliy va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda sanoat yoki tarmoq tomonidan hamkorlikda moliyalashtirishga qiziqish bo'lgan taqdirda, loyiha talabnomalariga sanoat yoki tarmoq hamkori to'g'risidagi ma'lumot va uning moliyaviy ishtiroki (hamkorlikda moliyalashtirish) hajmi va turlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak. Yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, shuningdek, ilmiy izlanuvchilar institutini rivojlantirish uchun ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot guruhiga ilmiy stajor lavozimi kiritilishi lozim. Loyerha matni A4 formatdagi standart qog'oz varag'iga qoida tariqasida 1,15 qator oralig'ida yoziladi. Har bir bet yuqoridan va pastdan 2 sm; chapdan 3 sm; o'ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega; xatboshi 1,27 sm.ga teng va bir xilda bo'lishi zarur. Matnni bosib chiqarishda "Times New Roman" 14 o'lchamli shriftda "Microsoft Word" matn redaktoridan foydalanish tavsiya qilinadi. Betlar titul varag'idan boshlab oxirgi varaqqacha izchil ketma-ketlikda raqamlanadi. Betning tartib raqami varaqning pastki o'ng burchagida 2 raqamidan boshlab yoziladi. Titul varag'iga 1 raqami qo'yilmaydi. Loyihaning talab qilingan hujjatlari va boshqa tarkibiy qismlarining har biri yangi sahifadan rasmiylashtiriladi. Loyerha rahbari va ishtirokchilarining mezonlarda talab qilingan ilmiy ishlari ro'yxati (oxirgi 3 yil davomidagi nashrlar quyidagi xronologik tartibda keltirilib, izchil ketma-ketlikda raqamlanadi: monografiya; patent; ilmiy maqola; ilmiy to'plamlar va boshqa nashr ishlari)

3.4-shaklga qat'iy rioya qilingan holda rasmiylashtiriladi va muallif, ilmiy kotib tomonidan imzolanadi hamda tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi. Loyiha tayyorlangach, ijrochi tashkilotning Ilmiy (Ilmiy-texnik) kengashida muhokama qilinadi. Ilmiy (Ilmiy-texnik) kengash tomonidan bildirilgan taklif-mulohazalar asosida loyiha qayta ishlanishi mumkin. Loyihaga kengash bayonidan ko‘chirma ilova qilinadi. Loyiha to‘liq shakllantirilgach, fan-portal.uz elektron tizimidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi va identifikatsiya raqami olinadi. fan-portal.uz elektron tizimida ro‘yxatdan o‘tkazilmagan, belgilangan muddatdan kechikib topshirilgan loyihamalar tanlovga qabul qilinmaydi. “Fan” elektron tizimi loyihamalar tanlovlarini e’lon qilish, mamlakatda ilmiy faoliyat olib borayotgan olimlar reestrini yaratish, tanlovlarga arizalarni topshirish, loyihamalar ekspertizasi va monitoringini elektron tarzda amalga oshirish imkonini beradi. Loyiha talabnomasini fan-portal.uz elektron tizimi orqali ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi. Internet tarmog‘i orqali fan-portal.uz elektron tizim manziliga kiriladi. Shuningdek, tizimga tanlov e’lonidagi havola orqali ham kirish mumkin. Menyudagi “kirish” havolasi ustiga bosiladi. Agar loyiha rahbari avval ham ilmiy loyihamalar tanlovlarida ishtirok etib, elektron ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, STIR raqami va parolni kiritib, kursivni “jo‘natmoq” so‘zi ustiga bosgan holda navbatdagi sahifaga o‘tishi mumkin.

The screenshot shows a web browser window with the URL 'fan-portal.minnovatsion.uz/home/?'. The page title is 'INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI OZBEKISTON RESPUBLIKASI'. The header includes a logo, a search bar, and language selection ('uz'). The main menu has items: 'Bosh sahifa', 'Loyihalar', 'Tanlov', 'Ulanish', 'Vazirlik haqida', and 'Kirish' (highlighted with a red box). The left sidebar lists 'Yangiliklar' (News) with three items: 'Давлат илмий-техник дастурлари доирасида бажарилиши 2019-2020 йилларга Мўлжалланган инновацион ишланмалар ҳамда долзарб тематик тадқиқотлар танлови' (9/27/18), 'Танлов мавзулари, танловни ўтказиш билан bogliq tartib va talaablar bilan vазирlikning rasmiy web-sahifasasi' (betafsil), and 'Давлат илмий-техник дастурлари доирасида бажарилиши 2019-2021 йилларга мўлжалланган амалий илмий-техник лойиҳалар танлови' (1/5/19). The right sidebar includes sections for 'Olimlar uchun qo'llanma' (Programs for experts) and 'Qayta aloqa' (Feedback).

[mininnovation.uz/uz/competitions/1858](https://mininnovation.uz/uz/competitions/1858)



4 марта, 2020  
Беларусда ёш олимпирнинг қисқа муддатли илмий стажировкалари...

**Танлов шартлари.**  
Лойиҳа ижрочилариңиң таркиби факатгина хотин-қизлардан иборат бўлиши, илмий жамоанинг ўртача ёши 45 ёшдан ошмаслиги, шунингдек илмий жамоада ёш олималар, иқтидорли талаба-магистрлар иштирок этиши лозим.  
Танловда Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги тизимидағи илмий-тадқиқот ва олий таълим муассасаларида ҳамда илмий фоалият билан шуғулланувчи бошқа ташкилотларда фаолият юритаётган хотин-қизлар иштирок этишлари мумкин.  
Лойиҳа раҳбари тегишилди тартибдаги илмий даражага эга бўлиши, сўнгги 5 йил ичидаги Web of Science ҳамда Scopus халқаро илмий базаларида камидаги битта илмий мақола чоп этган бўлиши шарт.  
Лойиҳа раҳбари бир вақтнинг ўзида бир турдаги иккита лойиҳага раҳбар бўлишига руҳсат этилмайди.  
Тақдим этилган лойиҳалар [www.fan-portal.uz](http://www.fan-portal.uz) веб-саҳифа орқали электрон рўйхатдан ўтказилиши шарт. Электрон рўйхатдан ўтмаган, шунингдек лойиҳа раҳбарининг охирги 3 йил давомида Web of Science ҳамда Scopus халқаро илмий базаларида чоп этилган камидаги битта илмий мақоланинг нусхаси илова қилинмаган лойиҳалар танловга қабул қилинмайди.  
Коғоз шаклда тақдим этилган лойиҳалар илмий-тадқиқот институтлари илмий ишлар ва инновациялар бўйича директор ўринбосарлари, олий таълим муассасаларининг илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректорлари томонидан тегишилди вазирлик ва идоралар раҳбарлари имзолаган йўлланма хати асосида қабул қилинади.  
Лойиҳа матни А4 форматдаги стандарт коғоз варагининг иккига томонидан жойлашиши ва қоиди тартиқасида 1,15 қатор оралиғида ёзилиши лозим. Ҳар бир бет юқоридан ва пастан 2 см; чандан 3 см; ўнгдан 1,5 см ҳошияга эга; хатобши 1,27 см га тенг ва бир ҳилда бўлиши лозим.  
Матни компютер воситасида босиб чиқариша «Times New Roman»

Чтобы активировать Windows, перейдите в раздел "Параметры".

<https://fan-portal.mininnovation.uz/signin?3>

Ruxsat oling

STIR

Parol

parolni unutdim

ro'yxatdan o'tish

Agar loyiha rahbari tanlovda birinchi marta ishtirok etayotgan bo'lsa, kursivni “ro'yxatdan o'tish” ustiga bosib, o'zi haqidagi so'rangan ma'lumotlarni kiritadi. Barcha qatorlar to'ldirib bo'lingach, “saqlash” funksiyasi bajariladi.

<https://fan-portal.mininnovation.uz/register?5>



INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

Bosh sahifa Loyerhalar Tanlov Ulanish Vazirlik haqida Kirish

uz +

Ro'yxatdan o'tish

Sharifi

Ismi

Otasining ismi

Elektron manzil

Parol

Parolni takrorlang

Sirli savol

Choose One

Sirli javob

Jinsi

Ayol

Активация Windows  
Чтобы активировать Windows, перейдите в раздел "Параметры".

The screenshot shows a registration form for 'Fan'. The fields include:

- Jinsi: Ayol
- Tug'ilgan sana: (date input field)
- STIR: (text input field)
- Ish manzili: (text input field)
- Ish telefoni: (text input field)
- Uy manzili: (text input field)
- Uy telefoni: (text input field)
- Maqolalar soni: (text input field)
- Ilmiy unvoni: Choose One
- Yo'nalish: Choose One
- Korxona: Выберите значение
- Lavozimi: Choose One
- Saqlash: (button)

Aktivatsiya Windows  
Чтобы активировать Windows, перейдите в раздел "Параметры".

1. STIR raqami va parol kiritilgach, loyiha rahbarining “shaxsiy kabinet”iga o’tiladi.

The homepage features the title 'INNOVATION RIVOJLANISH VAZIRLIGI OZBEKISTON RESPUBLIKASI' and the emblem of Uzbekistan. The navigation bar includes: Bosh sahifa, Loyihalar, Tanlov, Ulanish, Vazirlik haqida, Xabarlar (0), and UZ. A user profile icon shows (C201907293).

**Shaxsiy kabinet** (highlighted in red) and **Chiqish** buttons are visible on the right side of the header.

Content sections include:

- Yangiliklar** (News):
  - Давлат илмий-техник дастурлари доирасида бажарилиши 2019-2020 йилларга мўлжалланган инновацион ишланмалар ҳамда долзарб тематик тадқиқотлар танлови (9/27/18)
  - Танлов мавзулари, танловни ўтказиш билан боғлиқ тартиб ва талаблар билан вазирlikning расмий веб-саҳифаси (batafsil »)
  - Давлат илмий-техник дастурлари доирасида бажарилиши 2019-2021 йилларга мўлжалланган амалий илмий-техник лойиҳалар танлови (1/5/19)
  - Танлов мавзулари, танловни ўтказиш билан боғлиқ тартиб ва талаблар билан вазирlikning расмий веб-саҳифаси (batafsil »)
- Olimlar uchun qo'llanma** (Resources for students):
  - Фойдаланувчи учун кўлланма  
Экспертлар учун методик кўлланма
- Qayta aloqa** (Feedback):
  - Tashkilotni qo'shish so'rovi

Aktivatsiya Windows  
Чтобы активировать Windows, перейдите в раздел "Параметры".

6. Loyihani elektron tizimga kiritish uchun “**bosh menyu**” orqali “**tanlovlari**” bo‘limiga kiriladi. “**Batafsil**” tugmachasini bosish orqali “**ariza topshirish**” havolasiga kiriladi va talab etilgan amallar bajariladi. Har bir qator to‘ldirib bo‘lingach, “**keyingisi**” buyrug‘i orqali navbatdagi shakllarga o‘tish mumkin.

Ijrochilar hamda hamkor tashkilotlarni kiritishda “**qo‘sish**” amalidan foydalilaniladi. “**Avvalgi**” tugmachasi orqali oldingi sahifalarga qaytish va ma’lumotlarga qo‘sishimcha yoki o‘zgartirishlar kiritish mumkin.

Barcha ma’lumotlar to‘g‘ri kiritilganligiga ishonch hosil qilingach, “**jo‘natish**” tugmachasi bosiladi. Talab etilgan shakllar to‘g‘ri to‘ldirilgan bo‘lsa, yangi ariza ro‘yxatga qo‘siladi.

Loyihaning qog‘oz varianti ijrochi tashkilot Ilmiy (ilmiy-texnik) kengashi bayonidan ko‘chirma, yo‘llanma xati, mavjud bo‘lgan hollarda loyiha natijalaridan manfaatdor tashkilot yoki korxonaning qo‘llab-quvvatlov xati bilan birgalikda Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etiladi.

Loyihalarning qog‘oz shakli ilmiy-tadqiqot institutlari ilm-fan bo‘yicha direktor o‘rnbosarlari, oliy ta’lim muassasalarining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektorlari tomonidan tegishli vazirlik va idora rahbarlari imzolagan yo‘llanma xati asosida qabul qilinadi.

Belgilangan muddatdan kechikib topshirilgan loyihalar ko‘rib chiqilmaydi. Tematik loyihalar tanloviga kamida 2 ta va undan ortiq ariza kelib tushsa, tanlov haqiqiy deb topiladi va loyihalar o‘rnatilgan tartibda ekspertizadan o‘tkaziladi. Agar e’lon qilingan mavzu bo‘yicha faqat bitta loyiha kelib tushgan yoki umuman kelib tushmagan bo‘lsa, tanlov bo‘lmagan deb hisoblanadi. Bu holda ushbu mavzu qayta e’longa beriladi. Texnik ekspertiza natijalariga ko‘ra, mavzu bo‘yicha tanlovga kelib tushgan barcha loyihalar salbiy baholansa yoki loyihalardan faqat bittasi talabga javob bergen holatda ham tanlov bo‘lmagan deb hisoblanib, qayta tanlov e’lon qilinadi. Dastlabki va qayta tanlov natijalariga ko‘ra mavzu bo‘yicha faqat bitta loyiha kelib tushgan bo‘lsa, loyiha rahbari bilan suhbat o‘tkaziladi. Suhbat natijasi ijobiy bo‘lgan taqdirda loyiha tegishli ilmiy-texnik kengashga ekspertiza uchun yo‘naltiriladi. Dastlabki texnik ekspertiza Texnik ekspertiza loyiha yig‘ma jildidagi shakllar hamda ularga ilova qilingan hujjatlarning to‘liqligi va talabga muvofiqligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi (**5-ilova**). Texnik ekspertizani o‘tkazish muddati tanlovga loyihalarni qabul qilish tugagan kundan boshlab **o‘n besh kundan** oshmasligi kerak. Texnik ekspertiza jarayonida quyidagilar o‘rganiladi: loyihadagi shakllarning to‘liqligi va to‘g‘riliqi, imzo, muhr va shtamplarning mavjudligi; ilgari topshirilgan loyihalarga o‘xhashligi yoki shu mavzuda bajarilgan loyihalarning mavjudligi; moliyaviy-iqtisodiy hisob-kitoblar mavjudligi; texnik xatolar va noaniqliklar yo‘qligi.

Loyiha texnik ekspertiza natijalariga ko‘ra ijobiy baholansa, fan yo‘nalishlari bo‘yicha tegishli ilmiy-texnik kengashga ilmiy ekspertiza uchun yo‘naltiriladi.

Agar loyiha texnik ekspertiza jarayonida salbiy baholansa, bu haqda ijrochi tashkilotga yozma ravishda ma'lum qilinadi. Loyiha ijrochilariga **uch kun** muddatda ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun imkoniyat beriladi. Ijrochilar tomonidan belgilangan muddatda kamchiliklar bartaraf etilmasa, loyiha tanlovdan chetlashtiriladi (bu holatda loyiha ijrochilarga qaytarilmaydi).

Tanlovga bitta ariza kelib tushgan hollarda vazirlikning mas'ul xodimlaridan iborat ishchi guruhi **besh ish kuni** ichida loyiha rahbari bilan suhbat o'tkazadi. Ishchi guruh tomonidan tasdiqlangan bayon asosida loyiha ilmiy-texnik kengashda ko'rib chiqish uchun tavsiya etilishi yoki rad etilishi mumkin.

Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajariladigan ilmiy loyihalar davlat ilmiy ekspertizasidan o'tkazilishi shart.

Ilmiy ekspertiza loyihaning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, uni texnik jihatdan amalga oshirish imkoniyatlari, shu jumladan, ijrochi tashkilotda tadqiqotni amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza hamda ilmiy salohiyatning yetarli ekanligi, jamoa tomonidan erishilgan ilmiy yutuqlar va natijalar mavjudligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Loyihalarning ilmiy ekspertizasi vazirlik huzuridagi ilmiy-texnik kengash (ITK)lar tomonidan o'tkaziladi. Ekspert sifatida tegishli sohada yetarli darajada bilim va malakaga ega bo'lgan, ekspertiza qilinayotgan ishga xolis yondasha oladigan, ilmiy darajaga ega bo'lgan mutaxassislar, jumladan, xorijiy mutaxassislar jalbqilinadi. Ilmiy ekspertizada uning natijalaridan shaxsan manfaatdor bo'lgan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi. Ilmiy ekspertiza muddati ITKga loyiha kelib tushgan sanadan boshlab, **o'n besh kundan** oshmasligi kerak. Ilmiy ekspertiza ikki bosqichda o'tkaziladi: ekspertlar tomonidan ko'rib chiqish bosqichi; ochiq muhokama (taqdimot) bosqichi.

1-bosqich. Ekspertlar tomonidan ko'rib chiqish. Loyiha ilmiy ekspertizaga qabul qilingan kundan boshlab **uch kun** muddatda loyihalarning har biriga ikkitadan ekspert belgilanadi; ekspertlar **o'n kundan** kechiktirmagan holda loyihalarni ko'rib chiqadi. Ekspertlar 100 ballik shkala bo'yicha loyihani baholaydi: bunda 0 ball – eng past ko'rsatkich, 100 ball – eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Agar loyiha har ikki ekspert tomonidan 60 balldan past baholansa, ilmiy ekspertizadan o'tmagan hisoblanadi. Agar ekspertlardan bittasi loyihani 60 balldan yuqori, ikkinchi 60 balldan past baholagan bo'lsa, ITK tomonidan qo'shimcha ekspertiza tayinlanib, loyiha uchinchi ekspertga beriladi. Uchinchi ekspertning bahosi 60 balldan past bo'lsa, loyiha ilmiy ekspertizadan o'tmagan hisoblanadi. Agar loyiha har ikki ekspert tomonidan 60 balldan yuqori baholangan bo'lsa, loyiha ekspertizaning birinchi bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgan hisoblanadi. Ekspertlar baholari o'rtasidagi farq 25 balldan yuqori bo'lsa, ITK ekspertiza natijalarini aniqlashtirish uchun qo'shimcha ekspertiza tayinlab, uchinchi ekspertni jalb qiladi. Loyihaning yakuniy bahosini chiqarish uchun

barcha ekspertlar tomonidan berilgan baholarning o‘rtacha arifmetik qiymati hisoblanadi. Ilmiy ekspertizadan o‘tmagan loyihalar vazirlikka qaytariladi. Loyihalarga berilgan baholar va xulosalar ITK bayonida qayd etiladi. Vazirlik loyihaning rad etilish sabablarini ko‘rsatgan, zarurat bo‘lsa, ekspertlarning ism-sharifini ko‘rsatmagan holda ekspert xulosalarini ilova qilib, ijrochi tashkilotga yozma ravishda ma’lum qiladi.

2-bosqich. Ilmiy-texnik kengashda ochiq muhokama (taqdimot). Ilmiy ekspertizaning 1-bosqichidan muvaffaqiyatl o‘tgan loyihalar ilmiy-texnik kengashda loyiha rahbarlari ishtirokida ochiq muhokama (taqdimot) shaklida ko‘rib chiqiladi. ITK a’zolari loyiha rahbariga tadqiqot bo‘yicha savollar berish huquqiga ega. Taqdimot va ochiq muhokama natijalariga ko‘ra, ITK a’zolari loyihani 100 ballik tizim orqali baholaydi. Bunda 0 ball eng past baho, 100 ball eng yuqori baho hisoblanadi. Yakuniy baho ITK a’zolari baholarining o‘rtacha arifmetik qiymati orqali aniqlanadi. ITK a’zolarining baholari yig‘ilish bayonnomasida qayd etiladi. Loyihani baholash jarayonida loyiha ijrochilar va rahbarining qatnashishiga yo‘l qo‘yilmaydi. ITK tomonidan yakuniy bahosi 60 va undan yuqori ball bo‘lgan loyiha ilmiy ekspertizaning ikkinchi bosqichidan o‘tgan hisoblanadi. Zarur hollarda ITK tomonidan loyiha rahbariga bildirilgan taklif- mulohazalar va tavsiyalardan kelib chiqib, **uch ish kuni** ichida loyihaga tegishli o‘zgartirishlar qilishga ruxsat beriladi. O‘zgartirilgan loyiha qayta ekspertiza qilinib, muhokamadan o‘tkaziladi va bu jarayon ITK bayonida qayd etiladi. Har bir loyiha bo‘yicha xulosa va tavsiyalar, ITK qarori yig‘ilish bayonida qayd etilib, ITK raisi va kotibi imzosi bilan tasdiqlanadi. Loyihalarni baholash jarayonida ITK a’zolari ko‘pchilikning qarorini ma’qullamasligi, o‘z fikrini bildirishga haqli. ITK a’zosining alohida fikri yig‘ilish bayonnomasiga kiritiladi. Loyihani ekspertizadan o‘tkazish jarayonida ITK o‘xshash mavzular va yo‘nalishlarni birlashtirish, ish hajmi va xarajatlarni aniqlashtirish, rejalahtirilgan ishlarni to‘g‘rilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqishi mumkin. ITK bayoni rasmiy hujjat bo‘lib, uning to‘g‘ri rasmiylashtirilishiga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. ITKlar tomonidan ilmiy-texnik loyihalarni ko‘rib chiqish, ularning monitoringi (ekspertiza) natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish bayonlarida qator kamchiliklar uchrab turadi.

#### I. Loyihani ilmiy ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha:

a) ITK bayonlarida moliyalashtirishga tavsiya etilmagan loyihalar bo‘yicha to‘liq va asoslangan xulosalar berilishi yo‘lga qo‘yilmagan. Ayrim hollarda “tavsiya etilmadi” yoki “loyiha dolzarb emas” degan yuzaki yondashuvlar ham uchrab turibdi. Bu esa olimlar o‘rtasida ko‘plab e’tirozlarga sabab bo‘lmoqda;

b) bir yo‘nalish (mavzu)dagi 2 ta loyihaning aynan bitta mustaqil ekspert tomonidan ko‘rilishi o‘rniga 2 nafar boshqa-boshqa ekspertlar tomonidan ko‘rilishi holatlari mavjud. Bu esa aynan bir mavzudagi loyihalarning turli yondashuv (qarash) bilan baholanishiga sabab bo‘lmoqda.

## II. ITK bayonlarini rasmiy lashtirish bo‘yicha:

a) ITK bayonlari ko‘p hollarda ITK raisi hamda uning kotibi tomonidan imzolanib, vazirlikka uning nusxasi taqdim etilmoqda. ITK tomonidan ayrim hollarda vazirlik Hay’at yig‘ilishiga qadar avval taqdim etilgan ITK bayonlarining o‘zlari istagan shaklda bir necha marta o‘zgartirilishi holatlari uchrab turibdi. Vaholanki, bunda ITK a’zolarining ushbu o‘zgarishlarga roziligi (ovozi) inobatga olinmayapti. **6-ilovada** ITK bayoni namunasi berilgan. Loyihani ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotni *mininnovation.uz* rasmiy veb-saytidagi “tanlovlar” bo‘limi orqali bilib olish mumkin.

Buning uchun kursiv “**natijalar**” havolasi ustiga bosilib, jadvalga loyiha rahbarining STIR raqami va rasmdagi kod kiritiladi. **“Tekshirish”** buyrug‘ini berish orqali natijadan boxabar bo‘lish mumkin.

## **Hisobotlarni tayyorlash va topshirish.**

Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajarilayotgan loyihalarning hisobotlari moliyaviy yil yakunida Innovatsion rivojlanish vazirligiga topshiriladi.

Hisobotlar GOST 7.32-2001 – ilmiy-tadqiqot ishlariga davlatlararo standart talablariga muvofiq tuzilgan hisobot yoki ilmiy-texnik mahsulotlar shaklida tayyorlanadi.

Ijrochi tashkilot tomonidan Innovatsion rivojlanish vazirligiga quyidagilar taqdim etiladi: ilmiy-tadqiqot loyihalari ijrochi tashkilotining rasmiy blankidagi yo'llanma xati; tadqiqot loyihalari haqida hisobot; davlatlararo standart talablariga muvofiq tuzilgan GOST 7.9-95 “Xulosa va annotatsiya. Umumiy talablar” referat. Hisobotlarning qog'oz variantlari qattiq muqovali jild va elektron shaklda topshiriladi. Yakunlangan ilmiy loyihalarning hisobotlarini qabul qilish tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Hujjatlar ijrochi tashkilot va loyiha rahbari tomonidan imzolanadi va buyurtmachitomonidan tasdiqlanadi.

### **Loyiha rahbari va ijrochi tashkilotlarga qo'yiladigan talablar**

Davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan barcha turdag'i ilmiy loyihalar ilmiy rahbarlari ilmiy darajaga ega bo'lishi shart (yosh olimlar loyihalari bundan mustasno).

Fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarning har bir ijrochisi faqat bir loyihada to'liq stavkada va ikki loyihada o'rindosh sifatida ishtiroy etishi mumkin, bunda ularning umumiyligi ulushi ikki to'liq stavkadan oshmasligi lozim.

Tadqiqotning bajarilishi, ilmiy-texnik saviyasi, hisobotlarning belgilangan muddatlarda topshirilishi, moliyaviy mablag'larning samarali va maqsadli sarflanishida loyiha rahbari va ijrochi tashkilot rahbari shaxsan javobgardir.

Ijrochi tashkilot loyihani amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi, ilmiy yoki ilmiy-texnik kengashda hisobotlarni muhokama qiladi, loyiha rahbarining taklifiga ko'ra, tadqiqotlarning sifatli bajarilishini ta'minlash uchun “vaqtinchalik ilmiy jamoa” tashkil etadi.

Vaqtinchalik ilmiy jamoaga boshqa tashkilotlarning xodimlari ham jalb etilishi mumkin. Tashkilot rahbari buyrug'i bilan loyiha rahbari jamoa rahbari etib tasdiqlanadi.

### **Ilmiy loyihalarning hisobotlari ro'yxatini yuritish**

Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajarilgan va Davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilgan loyihalarning yakuniy hisobotlarini ro'yxatdan o'tkazish va hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy- texnika axboroti markazi tomonidan amalga oshiriladi. Ilmiy-texnika axborot markazi ijrochi-tashkilotlarga ilmiy loyihalarning yakuniy hisobotlarini ro'yxatga olish va hisobot hujjatlarini taqdim etish ishlarida uslubiy yordam ko'rsatadi.

Ilmiy-texnika axboroti markazi ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bo‘yicha ma’lumotlar bazasi va yagona reestrini yuritadi. Ilmiy loyihalarning yakuniy hisobotlari ijrochi tashkilotning Ilmiy (Ilmiy-texnik) kengashlari yig‘ilishida muhokama qilinadi. Ijrochi tashkilot belgilangan muddatda Ilmiy-texnika axboroti markaziga tasdiqlangan hisobot hujjatlarini taqdim etishi shart. Yakuniy hisobot hujjatlari elektron va qog‘oz nusxada topshiriladi. Taqdim etilgan ma’lumotlarning to‘liqligi, ishonchliligi, qonuniyligi va hujjatlarning talab darajasida shakllantirilganligi uchun javobgarlik ijrochi tashkilot zimmasidadir. Ilmiy-texnik axborot markazi ekspertlarni jalb etgan holda yakuniy hisobotlarni ekspertizadan o‘tkazadi, xulosa tayyorlaydi, tijoratlashtirish imkoniyati yuqori bo‘lgan loyihalarni tijoratlashtirishga tavsiya etadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. O‘zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni mohiyati nimadan iborat?
3. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?
4. O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
5. Ilmiy loyihaning qanday turlarini bilasiz?
6. Fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar bir-biridan qanday farqlanadi?

### **Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabr “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyul «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida» gi O‘RQ-630-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyul “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3855-sonli Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 iyul “Fan va oliy ta’lim sohasi xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3876сони Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-6097-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 dekabr “Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatning istiqbolli yutuqlarini joriy qilishning samarali mexanizmlarini tatbiq etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 979-sonli Qarori.

10. Shuhrat Otajonov. Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi: tanlov mavzulari va ilmiy loyihalar qanday shakllantiriladi?. “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” Toshkent.: 2020

### **Internet saytlar**

34. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
35. <http://www.mitc.uz> - O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi
36. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
37. <http://lib.bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

## **2-MAVZU: Oliy ta’lim muassasalarida «Universitet 3.0» konsepsiyasini joriy etish muammolari va istiqbollari**

**Reja:**

2.1. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini va uni bosqichma-bosqich joriy etish.

2.2. Zamonaviy universitetlarda texnologiyalar va loyiha boshqaruvi.

2.3. Fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish.

**T**

**a**

**y**

**a**

**n 2.1. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini va uni bosqichma-bosqich joriy etish**

Universitetlar Yevropa O‘rta asrlarida XII-XIII asr oxirlarida "nimadir o‘qitishni istagan qobiliyatli odamlar va o‘rganishni istagan yoshlarning birlashishi natijasida" paydo bo‘lgan<sup>1</sup>. O‘rta asrlarda *universitas* atamasi (*lotincha* - "yaxlitlik", "butunlik")<sup>2</sup> bir qator jamiyatlar va birlashmalar uchun ishlatilgan, ammo oliy ta’lim tizimining tivojlanishi bilan atama ma’lum bir maqsad uchun yaratilgan - bunday ittifoqqa mos keladigan barcha xususiyatlarga ega bo‘lgan ta’lim uchun yaratilgan korporatsiyaning faqat bitta turiga beriladi.

Maktab ta’limini takomillashtirish va cherkovga bevosita bog‘liq bo‘lmagan muktablarning paydo bo‘lishi universitetlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Monastirlarning ehtiyojlari uchun o‘quvchilarni o‘qitadigan monastir muktablaridan farqli o‘laroq, fuqarolik va cherkov ishlarida o‘qituvchilarga o‘qituvchi bo‘lgan yepiskopal sobor muktablari va cherkovga aloqasi bo‘lmagan shahar muktablari vaqt sh‘tishi bilan paydo bo‘lib, o‘quvchilarni fuqarolik va bozor ehtiyojlariga tayyorladilar. Shahar muktablari cherkov bilan bog‘liq bo‘lmaganligiga qaramay, ularda ruhoniylar dars berishardi. Keyinchalik muktablar universitetlarning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘ldi.

Universitetlarning paydo bo‘lishiga bir qator holatlar va sabablar, masalan t

<sup>1</sup> Laurie, S. S. Lectures on the Rise and Early Constitution of Universities. London: Kegan Paul, Trench & Co., 1886. 326 p.

<sup>2</sup> Латинско-русский и русско-латинский словарь / А. В. Подосинов [и др.]. М.: Флинта, 2015. 752 с.

n

i

v

e

shaharlarning rivojlanishi, jamiyatning fikrlash tarzidagi o‘zgarish, davlat tomonidan universitetlarni tashkil etishning iqtisodiy foydalari tan olinishi, hukumatning ma’lumotli kadrlar paydo bo‘lishidan manfaatdorligi va ta’lim olishni istagan qiziquvchilarning paydo bo‘lishi kabi omillar yordam berdi. Oqibatda hamkorlik natijasida shahar va universitet o‘zaro manfaatli foyda oldi. Shahar universitetni darslar uchun joylar va talabalar uchun infratuzilma bilan ta’mnladi, universitet, o‘z navbatida, shaharga yangi aholini jalb qildi va savdo rivojlanishiga hamda xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishiga sabab bo‘ldi.

Dunyoviy hokimiyat uchun universitetlarni tashkil etish va qo‘llab-quvvatlashning boshlang‘ich maqsadi paydo bo‘lgan boshqaruv davlat apparati uchun mutaxassislarni tayyorlash, universitet bergan hududning alohida holati va talabalarning tashrifidan qo‘srimcha daromadlarni jalb qilish edi. Shaharlarning faol shakllanishi, bozor munosabatlarining rivojlanishi va ishlab chiqarish hamda sanoatning izchil tashkil etilishi bilan shahar hokimiyati yangi mutaxassislarga keskin ehtiyoj sezdi. Qirol hokimiyatiga aristokratiyadan farqli o‘laroq yangi intellektual elitani shakllantirish uchun shifokorlar, tilshunoslar, tarjimonlar va huquqshunoslar kerak edi. Cherkov dunyoviy hokimiyat bilan bir qatorda, o‘z mavqeini va papa hokimiyatini mustahkamlash uchun ta’limni rivojlantirish va tarqatishda, shuningdek, bid’atlarga qarshi kurashishda, universitetlar va o‘qituvchilarni moliyaviy hamda ma’muriy jihatdan qo‘llab-quvvatladi. Universitet ta’limini rivojlantirishda cherkovning ishtiroki ularning o‘z tuzilmalarida o‘qimishli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojiga bog‘liq edi. Dunyoviy va cherkov hokimiyatining homiyligi tufayli talabalar barqaror ijtimoiy mavqega, soliqlar va yig‘imlardan ozod qilish, ish tashlash va faqat shaharning ma’muriyatiga emas, balki o‘zlarining professorlari va yepiskoplariga bo‘ysunish huquqi kabi universitetlarning ommaviyligini oshirishga yordam beradigan ko‘plab imtiyozlarga ega bo‘ldilar.

Universitetlar talabalar tomonidan hududiy yoki til asosida tashkil etilgan birodarliklardan (qardoshliklardan) va professorlar tomonidan o‘qitiladigan turli xil bilimlarga mos keladigan fakultetlardan iborat edi. Qonunlarga ko‘ra, bir mehmon vatandoshining jinoyati uchun hibsga olinishi mumkin edi, ammo jamoat ichida talabalar ushbu qoidadan himoyalanishdi.

